

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

M. R. CHUTBAYEV

GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI
HUQUQLARINI CHEKLASHNING
XALQARO TAJRIBASI

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2014

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

Taqrizchilar:

Toshkent shahar IIBB Tergov boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. Sh. Umarxonov**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi konstitutsiyaviy huquq
kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B. A. Saidov**

Ch–95 Chutbayev M. R.

**Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi huquqlarini cheklashning
xalqaro tajribasi:** O‘quv qo‘llanma. – T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi, 2014. – 73 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq
islohotlari davrida shaxs huquq va erkinliklarining kafolatlari tizimi, shaxs
huquqlarini cheklashning xalqaro-huquqiy asoslari, MDH davlatlarining
qonunchiligidagi shaxs huquqlarini cheklashning huquqiy tartibga solinishi, g‘arbiy
Yevropa mamlakatlari va AQSH qonunchiligidagi shaxs huquqlarini cheklashning
asoslari va tartibi, O‘zbekiston Respublikasida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi
huquqlarini cheklashning huquqiy asoslari o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV oliy o‘quv yurtlarining kunduzgi ta’lim
tinglovchilari va kursantlari, shuningdek boshqa yuridik oliy ta’lim muassasalarini
talabalari uchun mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)93ya73

KIRISH

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning uzviy qismi bo‘lgan sud-huquq islohotlari inson va uning huquq hamda erkinliklari – oliy qadriyat degan konstitutsiyaviy qoidaning amalda ta’minlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu yo‘nalishda yuzdan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi, shuningdek xalqaro-huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilinib, ularni milliy qonunchiligidan etish jarayoni izchil davom etmoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichida eng muhim yo‘nalishlardan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir»,¹ – degan fikrlarini eslash o‘rinlidir.

Mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonida nafaqat qonunchilikda, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ham shaxsning protsessual mavqeidan qat’i nazar, uning huquqlarini to‘la va hech qanday istisnosiz ro‘yobga chiqarilishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual maqomida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, shaxsni qamoqqa olishga ruxsat berish vakolati sndlarga o‘tkazildi, qamoqqa olish ehtiyyot chorasi qo‘llashning yangi mezonlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Ushbu ehtiyyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga qo‘llanilishi mumkinligi, uni qo‘llashning alohida holatlari ro‘yxatining aniq belgilanganligi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va majburiyatları kengaytirilganligi, ko‘rsatuv berishdan bosh tortish va bergen ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishida dalil sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish, erkin harakatlanish cheklangan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish, birinchi

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси // Демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б. 53.

so‘roqdan oldin himoyachi bilan holi uchrashish, ushlanganligi haqida advokatiga yoki yaqin qarindoshlariga xabar berish uchun bir marotaba telefon qo‘ng‘irog‘ini amalga oshirish huquqi kabi o‘zgartish va qo‘sishimchalarning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi¹ga kiritilishi mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini eng ilg‘or xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Konstitutsiyaviy huquqlar tizimida insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, turarjoy daxlsizligi huquqlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas»²ligi belgilangan bo‘lsa-da, huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirishda insonning asosiy huquqlarini cheklovchi ushlab turish, qamoqqa olish, tintuv va boshqa protsessual majburlov xususiyatiga ega choralar qo‘llanilishi mumkin.

¹ Keyinchalik matnda JPK.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2012. – B.7.

SHAXS HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI TIZIMI

Inson huquqlariga daxldor masalalar doimo olimlarning diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Mazkur muammoga XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida katta e'tibor berila boshlandi. Inson huquqlari uchun kurash konsepsiyasidagi turli ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa sabablar tufayli turli mamlakatlarda, shuningdek umuman jahon hamjamiyati miqyosida huquqni muhofaza qiluvchi institutlar, tashkilotlar va assotsiatsiyalar tuzilgan, tegishli yuridik va ijtimoiy-siyosiy hujjatlar tayyorlangan va qabul qilingan edi.

Shunga qaramasdan, so'nggi o'n yillikda inson huquqlari aholining keng qatlami diqqat-e'tiborini muntazam ravishda o'ziga jalb qilib kelayotgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan va xalqaro-huquqiy munosabatlarning eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolganini rad qilib bo'lmaydi. Shuningdek, hozirgi paytda inson huquqlariga oid muammolar faqat ayrim mamlakatlar yoki hududlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki dunyo miqyosida tobora keng qamrovli qiyosiy-huquqiy xususiyat kasb etayotgani quvonarlidir.

Huquq va erkinliklarni samarali ta'minlash turli cheklov va salbiy ta'sirlardan xoli bo'lgan, inson va fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarining samarador mexanizmiga bog'liq. Huquq va erkinliklar kafolatining umume'tirof etilgan bunday mexanizmi xalqaro, milliy va mahalliy huquqiy himoya bosqichlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Bu mexanizmning uchala qismi xalqaro huquq normalari va prinsiplari asosida qabul qilingan va turli yuridik kuchga ega huquqiy normalarga mantiqan va uzviy bog'liq hamda ulardan kelib chiqadi.

Fikrimizcha, inson huquq va erkinliklarini kafolatlashning xalqaro mexanizmi quyidagi bir necha tarkibiy elementlardan tashkil topadi:

birinchidan, xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan va inson huquqlarining rivojlanishiga yordam beruvchi, inson huquqlarining jahon tajribasini shakllantiruvchi hamda inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshiruvchi shart-sharoitlardan;

ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini tartibga soluvchi inson huquqlarini himoya qilish vositalari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, mexanizm va tartiblari, xalqaro huquq subyektlari (davlatlar, BMT va shaxsning huquqiy holati bilan bog'liq

boshqa xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar) faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan;

uchinchidan, yuridik (protsessual) tartiblar davlatlar va xalqaro huquq boshqa subyektlarining inson huquqlarining ommaviy buzilishi uchun xalqaro-huquqiy javobgarligi, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning ko‘p qirrali faoliyati yig‘indisidan¹.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan barcha xalqaro prinsiplar, vositalar, mexanizmlar va jarayonlar inson huquq va erkinliklarining xalqaro-huquqiy kafolatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida asosiy e’tibor davlatning ichki mexanizmlarini, eng avvalo, mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uni demokratlashtirish, gullab yashnashi va farovonligi davlat tomonidan mustahkamlanishi va ta’minlanishiga bog‘liq bo‘lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni tadqiq qilish masalalariga qaratish lozim. Inson huquqlari muammolarini xalqaro miqyosda ham, mahalliy miqyosda ham hal etish shaxs huquqlari va erkinliklarini davlat ichida kafolatlashning samaradorligiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy davlat va demokratik jamiyat barpo etish yo‘lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. O‘zbekistonning inson huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilishga qaratilgan 60 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo‘shilganligi buning yorqin isbotidir.

Bizning davlatimiz fuqarolik jamiyati sari borayotganini umume’tirof etilgan demokratik, erkinlik va ijtimoiyadolat prinsiplariga sodiq qolgan holda inson huquqlariga taalluqli xalqaro-huquqiy standartlarni milliy qonunchiligidan quradigan implementatsiya qilinayotganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida va 17-moddasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari ustuvorligi qoidasi o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga fakultativ protokol, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-y.) va boshqa bir qator umume’tirof etilgan xalqaro hujjatlarni tan oldi va ularni ratifikatsiya qildi.

¹Бу haqda qarang: *Сайдов А.Х. Халқаро хуқуқ. – Т., 2001. – В. 201–204.; Азаров А. Я. Права человека. – М., 1995. – С. 214; Карташкін В. А. Права человека в международном и внутригосударственном праве. – М., 1995. – С. 145.*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida milliy qonunchilikdan xalqaro-huquqiy hujjatlarning ustunligi e’tirof etilishi munosabati bilan BMTning bir qator hujjatlarida aks etgan va barcha uchun majburiy bo‘lgan prinsiplarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish to‘g‘risidagi masala dolzarblik kasb etadi.

Jinoyat sudlov ishlarining maqsadiga erishish jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy holati, ularning huquqlarini cheklash, qo‘srimcha majburiyatlar yuklanish institutlarining o‘zgartirilishini nazarda tutadi. Aksariyat xususiy holatlarda Jinoyat-protsessual kodeks subyektning jinoyat-protsessual huquqi asoslari, shartlari, tartibi va cheklash chegaralarini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, jinoyat sudlov ishlarida (g‘ayrihuquqiy) kuch ishlatish muammosi mavjudligi aksariyat davlatlarga xosdir. BMT tomonidan qabul qilingan va majburlov tartibiga oid bir qator xalqaro hujjatlar ham shundan dalolat beradi. Bularga – 1988-yilgi «Har qanday shakldagi ushlab olish yoki hibsga olishga duchor bo‘lgan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari to‘plami», 1857 va 1977-yilgi «Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari», 1979-yilgi «Huquq-tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi», 1984-yilgi «Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala va jazo turlariga qarshi konvensiya» va boshqalarni kiritishimiz mumkin¹.

1979-yil 17-dekabrdagi «Huquq-tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar axloq kodeksi»ning 3-moddasi kuch ishlatish prinsipini belgilab, uni – «Huquq-tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar faqat eng so‘nggi chora sifatida va o‘z majburiyatini bajarish taqozo etadigan darajada kuch ishlatishi mumkin»² deb ifodalagan. Sharhlarda kuch ishlatishning quyidagi shartlari keltirilgan:

- 1) favquloddalik;
- 2) mansabdor shaxsning vakolatliligi;
- 3) asosli zarurat;
- 4) ushbu maqsad uchun zarur chegaradan chiqmasdan kuch ishlatish;
- 5) qonuniy maqsad.

¹ Qarang: Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: Сборник международных документов. – Т., 1995. – С. 160–228.

² O‘sha manba. – С. 223–224.

Surishtiruv organlarining ba'zan jismoniy va ruhiy xususiyatga ega me'yorlarni suiiste'mol qilib ushlangan shaxsga, guman qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan kuch ishlatayotganligi hech kimga sir emas.

Inson huquqlari Yevropa konvensiyasida «shaxs», «qadr-qimmat» va «inson» tushunchalarini ifoda qilishning asosi bo'lib, eng avvalo, diniy axloq, shuningdek fuqarolik institutlarining mavjudligi va yetarliligi hisoblanib kelinadi. Huquqshunos olim R. Panikkar (Panikkar R.) ta'kidlaganidek, inson qadr-qimmati va uning huquqlari to'g'risidagi Yevropa konsepsiyasini «Xudo, Cherkov, tamaddun (madaniyat, sivilizatsiya), fan va hozirgi zamon texnologiyasi...»¹ yaratgan.

Insonning qadr-qimmati va huquqlari g'oyasi uchun amerikacha zaminni diniy qoidalarning amaliyligi va fuqarolik jamiyatining barqarorligi yaratib bergan. Ular «demokratiyaning empirik tizimini» va Amerika konstitutsionalizmi falsafasini quyidagicha ifodalaganlar: «Lokkning diniy ta'limoti konstitutsiyada o'z aksini topdi... va bu prinsiplar yuridik talqin uchun asos bo'lib xizmat qildi»². Amerikacha «aristokratiya» esa – Oliy sudning almashmaydigan va umrbod saylanadigan sudyalari, shuningdek advokatlari jamiyat va davlatni ajratuvchi to'g'on va radikal omillarning rivojlanishiga imkon bermaydigan to'siq bo'lib qoldilar³.

Fransiyada monarxiya mustabidligi va aristokratiyaningadolatsiz imtiyozlariga qarshi chiqqan fransuz revolutsiyasi, eng avvalo, shakllangan fuqarolik jamiyatiga tayanadigan hamda «inson va fuqarolarning huquqlari» uchun kurashgan. Inson qadr-qimmati va huquqlari g'oyasini diniy intilishlarga tatbiq etmagan fransuz tarixi «demokratiyaning ratsional tizimini» yaratdi. Huquqlarni amalga oshirish va muhofaza qilish qat'iy ravishda qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishda o'z mujassamini topishi lozim edi. Bu ma'noda huquqning asosiy manbasi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyat – «legislatura», uning ustidan nazorat esa – saylovchilarning nazorati hisoblanadi. Fransuz konstitutsiyasi Milliy Assambleya Fransiya xalqi nomidan qabul qilgan qonunga yoxud tarixdan, yoxud axloqdan kelib

¹ Panikkar R. Is the Notion of Human Tights a Western Concept? // Alston Ph. (ed.) Human Rights Law. N.Y. – 1996. – P. 76–77.

² Харц Л. Либеральная традиция в Америке. – М., 1993. – С. 100–101.

³ Токвиль А. Демократия в Америке. – М., 1992. – С. 122.

chiqadigan hech qanday nisbatan yuqori huquqiy nufuzni qarama-qarshi qo‘yish imkonini bermagan¹.

XIX asrda angliyalik huquqshunos va davlat arbobi A. Daysi o‘zining mashhur kitobi «Konstitutsiya huquqlari»²da «Rule of law» – «huquqni boshqarish» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi.

Daysi qo‘llagan atama Angliya va Amerikada keng tarqalgan bo‘lib, adolatlilikning muayyan asosiy prinsiplari hatto eng oliy hokimiyat tomonidan ham qonuniy ravishda buzilishi mumkin emasligini anglata boshladi. Insoniy qadr-qimmat va inson huquqlari davlatning xohish-irodasidan emas, balki insoniy xususiyatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Daysi bu asosiy huquqiy prinsiplarning manbaini o‘lka asosiy qonunlari, Angliya Konstitutsiyasi, shuningdek tarixiy tadrijga ega Angliya sud huquqi pretsedentida ko‘rdi.

Angliya an’analarida hatto Parlament, garchand u boshqa ommaviy muassasalardan yuqori tursa-da, Angliya xalqining tarixiy an’analarida mujassamlashgan adolatlilikning asosiy prinsiplariga bo‘ysunadi³. Bu prinsiplar va tarixiy an’analar asta-sekin huquq va siyosatning asosiy qadriyatlaridan o‘rin oldi: tortishuv va ommaviy yig‘ilishlar erkinligi, shuningdek subyektning buzib bo‘lmaydigan huquqlari – hayotdan, ozodlikdan yoki mulkdan noqonuniy mahrum qilishdan kafolat huquqi, adolatli sud muhokamasi, jamiyatdagi mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida barchaning tengligi. 1679-yilgi «Habeas corpus act»⁴ hujjati shaxsning daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasini o‘ziga qamrab oldi va u 1966-yildan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» deb e’lon qilindi⁵.

Buguni kunda amaldagi inson huquqlari konsepsiysi axloqiy masalalardan asta-sekin chekinib, minimal holatdagi huquqiy tizimni yaratish tomonga moyildir va shu asosda erkinlik, adolatlilik va huquq qadriyatlarini shakllantirmoqda.

Umumiyligi jihatdan hayot, erkinliklik va shunga o‘xshash qadriyatlar majburiyatlar atamasida deyarli yaxlitligicha tadqiq etiladi. Jamiyat bu sohadagi kafolatlar insonning to‘laqonli hayoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etadi. Biroq inson huquqi va shaxs qadr-qimmati bu yondashuvlarning liberal atamalarida mavjud emas.

¹ Конституции мира. Т.5. – Т., 1998. – С. 269–298.

² Dicey A. (ed.) Introduction to the Study of Law of the Constitution. London, 1993.

³ Montgomery J. To Rule of Law. London-Boston-N.Y., 1997. – P. 125–126.

⁴ ru.wikipedia.org/wiki/Хабеас_корпус_акт

⁵ Ўзбекистон Республикаси ва инсон хуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул мухаррир ю.ф.д., проф. А.Х.Сайдов. – Т., 2002. – В. 54–73.

Shu bilan birga, islom huquqida ham shaxs huquqlarini cheklashni belgilashga oid turlicha munosabatlar mavjud. Aksariyat mualliflarning fikricha islomda inson huquqlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, Mahdudiyning fikricha, «islom kishilik jamiyatidagi o‘rniga qarab, har bir inson uchun ayrim, har tomonlama, asosiy huquqlarni o‘rnatgan»¹.

Boshqa olimlar inson huquqlari prinsiplarining asosiy tushunchalari azaldan islomda mujassamlashgan va inson huquqlari doktrinasi 1400 yillik islom an’alariga ega deb ta’kidlaydilar².

Masalani sinchiklab tadqiq etgandan so‘ng bunday fikrni asoslash lozim. Masalan, I. Xalid ta’kidlaydiki, «musulmonlar bugungi kunda inson huquqlari deb atalayotgan narsani har doim bir-biriga berishga harakat qilganlar»³. Muallif «inson huquqlarini muqaddas kitoblar tiliga o‘girish mumkin emasligi»ni e’tirof etib, shuni ta’kidlaydiki, inson huquqlari islom doktrinasining markazida turadi. U islomda e’tirof etilgan va belgilab qo‘yilgan 14 ta inson huquqlarini shu jumladan, hayotni muhofaza qilish huquqi (o‘Idirmaslik va hayotga qandaydir bir daxlsiz narsa sifatida qarash to‘g‘risidagi ilohiy pand-nasihat), «adolat huquqi» (hukmdorning adolat bilan ish ko‘rish majburiyati), «erkinlik huquqi» (adolatsiz ravishda qulga aylantirmaslik majburiyati), «iqtisodiy huquq» (yashash uchun pul ishlab topish va kambag‘allarga yordam berish majburiyati), «erkin fikr bildirish huquqi» (haqiqatni aytish majburiyati) va boshqalarni ko‘rsatib o‘tadi.

Shu bilan birga, M. Xadduriy islomga asosan insonga xos quyidagi besh «huquq»ni sanab ko‘rsatadi: «shaxsiy xavfsizligi huquqi», «shaxsiy obro‘sini hurmat qilish», «tenglik», «odillik», «birodarlik»⁴. Islomda huquq adolatlilik sifatida tushuniladi. Xadduriyning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bu muammoning islomda tushunilishi, idrok etilishi inson huquqlari formal konsepsiyasidan farqlanadi. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, «islomda inson huquqlari – ... Alloh bergen imtiyoz, chunki butun hokimiyat to‘laligicha Unga tegishlidir»⁵.

¹ *Mawdudi A. Human Rights in Islam // Human Rights Law. N.Y., 1996.*

² *Donelly J. Human rights and Human Dignity: An Analytic Critique of Non-Western Conception of Human Rights // The American Political Science Review. 1992, V. 76. – P. 303–316.*

³ *Human Rights in Islamic Law / Ishaque Khalid // Review of the International Commission of Jurists. – 1974. – N 12 (June). 21 Sultanhussein, Tabandeh.*

⁴ Qarang: *Khadduri M. Human Rights in Islam. The Annals 243:77-81//Alston Ph. (ed.) Human Rights Law. N.Y. 1996.*

⁵ *Khadduri M. Human Rights in Islam. The Annals 243:77-81//Alston Ph. (ed.) Human Rights Law. N.Y. 1996.*

SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

XX asrning ikkinchi yarmi boshlarida dunyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat insoniyat oldida shaxs huquq va erkinliklari muhofazasi yo‘nalishida kuch va vositalarni birlashtirish zaruratiniz yuzaga keltirishi natijasida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yil 24-oktabrda qabul qilingan Nizomida o‘z oldiga «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlariga va barchanining irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar asosiy erkinliklariga hurmatni rag‘batlantirish va rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish»¹ni maqsad qilib qo‘yib, inson huquqlari muhofazasida davlatlar uchun majburiy bo‘lgan prinsiplarni belgilab bergan. BMT Nizomida belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab konvensiya, deklaratsiya va xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular nafaqat shaxs, balki butun insoniyat manfaatlari muhofazasining xalqaro-huquqiy himoyasining huquqiy bazasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

1946-yilda BMT tomonidan Inson huquqlari bo‘yicha komissiya tashkil qilinib, komissiya tomonidan Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill hujjatlari – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-y.), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga fakultativ protokol, tinchlik vaqtlarida o‘lim jazosini bekor qilishga yo‘naltirilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga ikkinchi fakultativ protokollar ishlab chiqilgan.

1948-yil 10-dekabrda «barcha davlatlar erishishi lozim bo‘lgan standart» sifatida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tavsiya xarakteriga ega. Shu bilan birga, unda ilk bor shaxsning fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarining fundamental asoslari shakllantirilgan. Shuning uchun, u bir qator davlatlarda konstitutsiya, inson huquqlariga oid turli qonun va hujjatlarni ishlab chiqishda huquqiy asos bo‘lib kelmoqda.

¹ Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. – Т., 2002. – В. 19.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida insonlarning qonun oldida tengligi, irqiy, diniy va boshqa turdagи kamsitilishlarga yo‘l qo‘ymaslik, yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, qyinoq va shafqatsiz munosabatlarga yo‘l qo‘ymasligi, qullik va qul savdosiga chek qo‘yish, aybsizlik prezumpsiyasi, qonunga asoslanmagan holda qamoqda saqlamaslik, vijdon erkinligi va boshqa bir qator inson huquq va erkinliklari sohasida standartlar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish va uni yanada takomillashtirish maqsadida keyinchalik inson huquq va erkinliklariga oid bir qator xalqaro konvensiyalar qabul qilindi. Bunga misol qilib, «Genotsidni oldini olish va jinoyatni sodir etganlik uchun jazolash to‘g‘risida»gi konvensiya (1948-yil 9-dekabr), «Urush vaqtidan tinch aholini himoya qilish to‘g‘risida»gi Jeneva konvensiyasi (1949-yil 12-avgust), «Inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasi to‘g‘risida»gi Yevropa konvensiyasi (1950-yil 4-noyabr), «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr), «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr) va boshqa hujjatlarni keltirishimiz mumkin.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro pakt insonning yashash, tenglik, huquqiy himoya, adolatli, oshkora va sudlovga tezroq erishish, erkin harakatlanish, shaxsiy hayot, vijdon erkinligi, oila va boshqa huquqlarini kafolatlagan holda uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga xalqaro standartlarni belgilab, bir qator majburiyatlarni yuklaydi. Pakt qyinoq, shafqatsiz, inson qadr-qimmatini kamsituvchi jazolarni, qullik, o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olish, bitta qilmish uchun ikki marotaba jazolash, qarzi evaziga qamoqqa olish kabi choralarni man qiladi.

«Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro pakt har bir insonga mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ijtimoiy ta’midot olish, dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bepul ta’lim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlarini kafolatlaydi.

1976-yildan boshlab yuqorida keltirib o‘tilgan har ikki Pakt ishtirokchi davlatlar uchun huquqiy jihatdan majburiy xarakterga ega bo‘ldi va bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta’minalash tizimida markaziy o‘rinni egallab kelmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlariga oid hududiy qonun ijodkorligi faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bunga misol tariqasida, Yevropa ittifoqi uchun «Inson huquqlari va asosiy

erkinliklari himoyasi to‘g‘risida»gi Yevropa konvensiyasi (1950-y.), «Inson huquqlari to‘g‘risida»gi Amerika konvensiyasi (1969-y.), «Inson va xalqlar huquqlari» Afrika xartiyasi (1981-y.), «Inson huquqlari islom konvensiyasi» (1994-y.), «Insonning asosiy huquq va erkinliklari to‘g‘risida»gi MDH konvensiyasi (1995-y.) va qabul qilingan bir qator mintaqaviy hujjatlarni keltirishimiz mumkin.

Inson huquqlarini muhofaza va hurmat qilish prinsipi asosida rivojlanayotgan va yanada aniqlashib borayotgan inson huquq va erkinliklari himoyasi sohasidagi jahon standartlari bugungi kunda davlatlarning xalqaro majburiyatlar sifatida belgilanmoqda. «Inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar» atamasi bir qator xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari, Xelsinki yakunlovchi akti kabi siyosiy ahdlashuvlar, Vena va Kopengagen uchrashuvlari hujjatlari kabi xalqaro hujjatlarni qamrab oladi.

Bugungi kunda sud-huquq tizimiga oid inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar sifatida: shaxsiy daxlsizlik, sha’n va qadr-qimmatni hurmat qilish, himoyalanish, qonun muhofazasida bo‘lish, aybsizlik prezumpsiyasi, shaxsiy hayat va oila daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, korrespondensiya daxlsizligi, erkin harakatlanish, mulk daxlsizligi, mehnat qilish, dam olish, til va boshqa huquq va erkinliklarni o‘zida mujassamlashtirgan qoidalar tan olingen bo‘lib, davlatlarga ularni amalda tan olish, ta’minalash va muhofaza qilish kabi majburiyat va talablarni yuklash zamonaviy xalqaro huquqning normalari orqali amalga oshiriladi.

Bu esa insonning umume’tirof etilgan huquq va erkinliklarini har qanday vaziyatlarda ham ta’minalash majburiyati barcha davlatlar uchun umummajburiy bo‘lgan xalqaro minimal standartlarni belgilash orqali tartibga solinganligini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqqan holda, inson huquq va erkinliklari muhofazasi sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlarni bugungi kunda barcha davlatlar tomonidan tan olinishi va insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minalash hamda muhofaza qilish sohasidagi normalar va prinsiplar xalqaro standartlardan kam bo‘lmasligini ta’minalash jarayonlari davom etayotganligini e’tirof etish joiz.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi ikkinchi qismida «Har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning (boshqa shaxslarning) huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta’minalash, axloq, jamoat tartibi, jamiyat farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak»ligi belgilangan. Shaxslarning boshqa huquq va erkinliklari deklaratsiyaning 12-moddasida keltirilib, ular shaxsiy va oilaviy hayat, uy-

joy daxlsizligi, yozishmalarning sir saqlanishi, sha'n va qadr-qimmat daxlsizligidan iboratligi belgilangan.

Mazkur masalani yanada tartibga solish maqsadida «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro paktning 17-moddasida «Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joy daxlsizligiga yoki yozishmalari sirlari daxlsizligiga o‘zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha’niga tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega»ligi qoidasi kiritilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida insonning huquq va erkinliklari boshqa shaxslar va jamiyatning manfaatlariga zid kelganda cheklanishi mumkinligi keltirilgan bo‘lsa, «Inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasi to‘g‘risida»gi Yevropa konvensiyasining «Huquq va erkinliklar» deb nomlangan 1-bobida insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga asoslangan holda cheklanishi mumkinligi belgilanib, cheklov doirasini kengaytirgan va aniqlashtirgan. Misol uchun, Konvensiyaning 8-moddasida insonning sha’ni va qadr-qimmatini, oilaviy hayotini hurmat qilish huquqi «...demokratik jamiyatda milliy xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash, mamlakatning iqtisodiy farovonligini ta’minalash, jinoyat va tartibbuzarliklarni oldini olish, boshqa shaxslarning sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari muhofazasi» yo‘lida cheklanishi mumkin. Shunga o‘xshash qoidani Konvensiyaning 10-moddasida ham kuzatish mumkin. Ya’ni «...milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik yoki jamoat tartibini saqlash, jinoyat va tartibbuzarliklarni oldini olish, boshqa shaxslarning sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari muhofazasi, maxfiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishini bartaraf etish yoki odil sudloving nufuzi va xolisonaligini ta’minalash» maqsadida insonning huquq va erkinliklaridan biri bo‘lmish fikr bildirish erkinligi cheklanishi mumkin.

Aynan shunga o‘xshash qoidani 1995-yilda qabul qilingan «Insonning asosiy huquq va erkinliklari to‘g‘risida»gi MDH konvensiyasining 9-moddasida ham uchratish mumkin. Tavsiyaviy davlatlararo hujjat sifatida 1996-yil 17-fevralda MDH a’zo davlatlari parlamentlararo Assambleyasi qarori bilan qabul qilingan MDH a’zo davlatlari uchun namunaviy Jinoyat-protsessual kodeksi¹da ham jinoiy-sudlov sohasida insonning huquq va erkinliklari kafolatlari belgilanganligi bilan bir qatorda ularni cheklashning qonuniy asoslari ham keltirib o‘tilgan. Misol uchun, mazkur kodeksning 16-moddasida shaxsiy daxlsizlik huquqi qonuniy asoslarga ko‘ra cheklanishi mumkinligi belgilangan.

¹ www.bazazakonov.ru

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLATLARINING QONUNCHILIGIDA SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning to‘laqonli subyekti sifatida tan olingan va yuqorida keltirib o‘tilgan xalqaro-huquqiy hujjalarning aksariyatini ratifikatsiya qilgan hamda jamiyatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan sud-huquq sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda va islohotlarning pirovard maqsadi mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni himoya qilish hamda kafolatlashga qaratilmoqda.

Shu o‘rinda, Prezident Islom Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» ma’ruzasida keltirilgan, – «Ayni paytda barchamiz bir haqiqatni o‘zimizga aniq tasavvur etishimizni istardim. Ya’ni, erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, jahon miqyosida obro‘-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo‘lning bir qismi, xolos.

Bu yo‘lda biz duch kelishimiz mumkin bo‘lgan shunday bir xavf borki, u ham bo‘lsa, avvalambor erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilish, real voqelikdan uzilib qolish xavfidir. Bu esa mamlakatimiz taraqqiyotining samaradorligi va istiqboliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin»¹ degan fikrlarini keltirib o‘tish lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz jinoiy ish yuritushi jarayonida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan bog‘liq huquqiy normalarni qo‘llash amaliyoti shaxsni davlat organlari tomonidan jinoiy-protsessual faoliyat doirasiga jalb qilish va bunda uning huquq va erkinliklari cheklanishi sababli ularni ta’minlashga oid bir qator o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, mazkur yo‘nalishda rivojlangan

¹ Каримов И. А. Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир // Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.19. – Т., 2011. – В. 39.

demokratik davlatlarning ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini o‘rganib, eng maqbul jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, bevosita xorijiy davlatlar jinoyat protsessida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqiy maqomi va ularni chegaralash institutlari qanday tartibga solinganligini o‘rganib chiqishni taqozo qiladi.

Tadqiqot ishi doirasida Rossiya, Belorus, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Ukraina, Ozarbayjon, Estoniya, Turkmaniston, Armaniston, Moldova va Tojikiston davlatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligi tahlil qilib chiqildi. Mazkur davlatlarning protsessual qonunchiligidagi inson huquq va erkinliklariga oid xalqaro standartlarning aks ettirilganligining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning hammasi ham mazkur davlatlar qonunchiligidagi o‘z aksini topmagan.

Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida shaxsiy hayot va oila daxlsizligi hamda mulk daxlsizligi huquqi; Belorus protsessual qonunchiligidagi mulk daxlsizligi huquqi; Ukraina qonunchiligidagi sha’n va qadr-qimmatni hurmat qilish, huquqlarni qonun orqali muhofaza qilish, aybsizlik prezumpsiysi va erkin harakatlanish huquqlari; Estoniyada esa sha’n va qadr-qimmat, hurmat qilish va huquqlarni qonun orqali muhofaza qilish; Armanistonda shaxsiy hayot va oila daxlsizligi huquqlari kafolatlanmagan.

2001-yilda yangi qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (91–96-m.), uy qamog‘i (107-m.), qamoqqa olish (108-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (203-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga ketmaslik va munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat (102-m.), shaxsiy kafillik (103-m), qo‘mondonlik kuzatuviga topshirish (104-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (105-m.), hozir bo‘lish majburiyati (112-m.), majburiy keltirish (113-m.), shaxsiy tintuv (184-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi.

Uy-joy va mulk daxlsizligi garov (106-m.), mol-mulkni xatlash (115-m.), tintuv (182-m.), olib qo‘yish (183-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash (185-m.), so‘zlashuvlarni kontrol qilish va yozib olish (186-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat*

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. www.zakonrf.info/upk/

qilish huquqi lavozimdan chetlashtirish (114-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (179-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

2000-yilda qabul qilingan Ozarbayjon Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (147–159-m.), qamoqqa olish (157-m.) va uy qamog‘i (163-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (165-m.), shaxsiy kafillik (166-m), jamoa kafilligi (167-m.), politsiya nazoratiga topshirish (169-m.), voyaga yetmaganni nazoratga topshirish (170-m.), qo‘mondonlik kuzatuviga topshirish (171-m.), majburiy keltirish (178-m.), shaxsiy tintuv (246-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (164-m.), olib qo‘yish va tintuv (242–247-m.), mol-mulkni xatlash (248–254-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf va boshqa korrespondensiyalarni xatlash (255–258-m.), telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish (259-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (172-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (238-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

1999-yilda qabul qilingan Belorus Jinoyat-protsessual kodeksida² insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (107–115-m.), uy qamog‘i (125-m.), qamoqqa olish (126-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (235-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga ketmaslik va munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat (120-m.), shaxsiy kafillik (121-m), harbiy xizmatchi ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi (122-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (123-m.), hozir bo‘lish majburiyati (129-m.), majburiy keltirish (130-m.) va shaxsiy tintuv (211-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (124-m.), mol-mulkni xatlash (132-m.), tintuv (208-m.) va olib qo‘yish (209-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf va boshqa jo‘natmalarni xatlash (213-m.), so‘zlashuvlarni eshitish va yozib olish (214-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (131-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (206-m.) harakatlari bilan cheklanishi mumkin.

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики. www.km.undp.sk

² Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь. www.pravo.levonevsky.org

2009-yilda qabul qilingan Tojikiston Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (91–100-m.), uy qamog‘i (110-m.), qamoqqa olish (111-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (216-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (105-m.), shaxsiy kafillik (106-m), harbiy xizmatchini qo‘mondonlik kuzatuviga topshirish (107-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (108-m.), majburiy keltirish (115-m.), shaxsiy tintuv (193-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (109-m.), mol-mulkni xatlash (116-m.), tintuv (190-m.), olib qo‘yish (191-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash (195-m.), so‘zlashuvlarni eshitish va yozib olish (196-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan vaqtinchalik chetlashtirish (114-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (186-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

1997-yilda qabul qilingan Qozog‘iston Jinoyat-protsessual kodeksida² insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (132–138-m.), uy qamog‘i (149-m.), qamoqqa olish (150-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (247-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga ketmaslik va munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat (144-m.), shaxsiy kafillik (145-m.), harbiy xizmatchi ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi (146-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (147-m.), surishtiruv, tergov va sudda hozir bo‘lish majburiyati (157-m.), majburiy keltirish (158-m.), shaxsiy tintuv (233-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (148-m.), mol-mulkni xatlash (161-m.), tintuv (230-m.), olib qo‘yish (231-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash (235-m.), so‘zlashuvlarni eshitib turish (237-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan vaqtinchalik chetlashtirish (159-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (226-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан. www.medialaw.asia

² Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. www.base.spinform.ru

2003-yilda qabul qilingan Moldova Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* tibbiy muassasaga joylashtirish (152-m), ushlab turish (165–174-m.), qamoqqa olish (185-m.) va uy qamog‘i (188-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa shaxsiy tintuv (130-m.), hududdan chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat va mamlakatdan chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (178-m.), shaxsiy kafillik (179-m), jamoa kafilligi (180-m.), haydovchilik huquqidan mahrum qilish (182-m.), harbiy xizmatchini kuzatuv ostiga topshirish (183-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (184-m.), sud kontroli ostida vaqtinchalik qamoqdan ozod qilish (191-m.), hozir bo‘lish haqida majburiyat (198-m.), majburiy keltirish (199-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov evaziga vaqtinchalik qamoqdan ozod qilish (192-m.), tintuv (125-m.), olib qo‘yish (126-m.), mol-mulkni xatlash (203–210-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* korrespondensiyalarni xatlash (133-m.), so‘zlashuvlarni eshitib turish (135-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan vaqtinchalik chetlashtirish (200-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (119-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

1998-yilda qabul qilingan Armaniston Jinoyat-protsessual kodeksida² insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (128–133-m.), qamoqqa olish (137-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (280-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (144-m.), shaxsiy kafillik (145-m), jamoa kafilligi (146-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (148-m.), qo‘mondonlik kuzatuvi (149-m.), majburiy keltirish (153-m.) va shaxsiy tintuv (229-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (143-m.), tintuv (225-m.), olib qo‘yish (226-m.), mol-mulkni xatlash (232–238-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta, telegraf va boshqa jo‘natmalarini xatlash (239–240-m.), telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish (241-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (152-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (220-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова. www.base. spinform.ru

² Уголовно-процессуальный кодекс Армении. www.yurotdel.com

1999-yilda qabul qilingan Qirg‘iziston Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (94–100-m.), qamoqqa olish (110-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (208-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (105-m.), shaxsiy kafillik (106-m), harbiy xizmatchi ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi (107-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (108-m.), hozir bo‘lish to‘g‘risida tilxat (116-m.), majburiy keltirish (117-m.), shaxsiy tintuv (185-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (109-m.), mol-mulkni xatlash (119-m.), tintuv va olib qo‘yish (184-m.), bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash (187-m.), so‘zlashuvlarni eshitib turish (188-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (118-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (180-m) harakati bilan cheklanishi mumkin.

2013-yilda qabul qilingan Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksida² insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (207–213-m.), qamoqqa olish (183-m.), uy qamog‘i (181-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (509-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa shaxsiy majburiyat (179-m.), shaxsiy kafillik (180-m), majburiyat keltirish (140-m.), muayyan huquqdan mahrum qilish (148–153-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (182-m.), jarima solish (144–147-m.), tintuv (234-m.), mulknai vaqtinchalik olib qo‘yish (167–169-m.), mol-mulkni xatlash (170–175-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* narsa va hujjatlardan foydalanishni vaqtinchalik cheklash (159–166-m.) va yozishmalarni xatlash (261-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (154–158-m), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (241-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

2009-yilda qabul qilingan Turkmaniston Jinoyat-protsessual kodeksida³ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (139–145-m.), qamoqqa olish (154-m.) va tibbiy muassasaga joylashtirish (294-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики. www.yurot-del.com

² Уголовно-процессуальный кодекс Украины. www.Kalinovsky-k.narod.ru/zakon/

³ Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана. www.base.spinform.ru

chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (150-m.), shaxsiy kafillik (151-m), jamoat birlashmasi kafilligi (152-m.), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (155-m.), qo‘mondonlik kuzatuvi (156-m.), sud, tergov va surishtiruvga kelish majburiyati (165-m.), majburiy keltirish (166-m.), shaxsiy tintuv (272-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (153-m.), mol-mulkni xatlash (169-m.), tintuv (270-m.), olib qo‘yish (271-m.) bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* korrespondensiyanı xatlash (281-m.), xabarlarni ushlab qolish (282-m.), so‘zlashuvlarni eshitib turish (283-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* lavozimdan chetlashtirish (167-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (265-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

2003-yilda qabul qilingan Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksida¹ insonning *shaxsiy daxlsizlik huquqi* ushlab turish (108¹-m.), qamoqqa olish (73-m.) va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish (159-m.) protsessual harakatlari bilan, *shaxsiy erkinlik huquqi* esa hech qayerga chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat (69-m.), shaxsiy kafillik (70-m), voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish (76-m.), qo‘mondonlik kuzatuviga topshirish (77-m.), majburiy keltirish (78³-m.), shaxsiy tintuv (143-m.) protsessual harakatlari bilan cheklanadi. *Uy-joy va mulk daxlsizligi* garov (71¹-m.), tintuv va olib qo‘yish (139–142-m.), mol-mulkni xatlash (146-m.), bilan cheklansa, *so‘zlashuv hamda xabarlashuvlar erkinligi va daxlsizligi* pochta-telegraf jo‘natmalarini olib qo‘yish (145-m.) protsessual harakati bilan cheklanadi. Shaxsning *mehnat qilish huquqi* ayblanuvchini lavozimdan chetlashtirish (129-m.), *tana daxlsizligi* esa guvohlantirish (152-m.) harakati bilan cheklanishi mumkin.

Mazkur davlatlarda jinoyat-protsessual faoliyat jarayonida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va erkinliklarini cheklovchi protsessual harakatlarni solishtirib, ularning o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib o‘tsak.

O‘rganib chiqilgan davlatlar qonunchiligiga binoan insonning shaxsiy daxlsizlik huquqini cheklovchi ushlab turish protsessual majburlov chorasi muddatiga ko‘ra 48 soatgacha (Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon va Estoniya), 72 soatgacha (Belorus, Tojikiston, Qozog‘iston, Moldova, Qirg‘iziston, Ukraina, Turkmaniston) yoki 96 soatgacha (Armaniston) qo‘llanilishi mumkin. Ushlab turish muddati faqatgina Rossiya Federatsiyasi va Tojikistonda sudning ruxsati bilan yana 72 soatga

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии. www.usbeta.ru

uzaytirilishi mumkin, o'rganilgan boshqa davlatlarda esa bunday holat nazarda tutilmagan. Tojikiston, Qozog'iston, Moldova va Qirg'izistonda shaxs faktik ushlangan paytdan boshlab 3 soat ichida ushlab turish bayonnomasi rasmiylashtirilishi shartligi belgilangan. Belorusda esa jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan avval shaxs ushlab turilgan bo'lsa 12 soat ichida jinoyat ishi qo'zg'atilishi lozim, aks holda shaxs darhol ozod qilinishi shart. Turkmanistonda ushlab turish «Ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash komissiya»ning ruxsati bilan qo'llaniladi.

Insonning shaxsiy daxlsizlik huquqini cheklovchi qamoq ehtiyot chorasi o'rganilgan davlatlarda o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Mazkur ehtiyot chorasi prokuror sanksiyasi (Turkmaniston, Qirg'iziston, Belorus, Qozog'iston) yoki sud ruxsati (Rossiya, Estoniya, Ozarbayjon, Tojikiston, Moldova, Armaniston, Ukraina) bilan amalga oshiriladi. Muddatiga ko'ra 30 sutka (Moldova), 2 oy (Turkmaniston, Qirg'iziston, Belorus, Qozog'iston, Armaniston, Tojikiston, Rossiya, Ukraina), 6 oy (Estoniya) yoki qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ko'ra, ya'ni ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar uchun 2 oy hamda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun 3 oy (Ozarbayjon) muddatga qo'llanilishi mumkin.

Uy qamog'i ehtiyot chorasi Rossiya, Belorus, Qozog'iston, Tojikiston, Ozarbayjon va Moldova davlatlari protsessual qonunchiligidagi mavjud, o'rganilgan boshqa davlatlarda esa mazkur ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan. Uy qamog'i ehtiyot chorasi mustaqil chora (Rossiya, Belorus, Qozog'iston, Tojikiston va Ozarbayjon) sifatida yoki faqatgina avval qo'llanilgan qamoq ehtiyot chorasingning o'rniga (Moldova) qo'llanilishi mumkin. Mazkur ehtiyot chorasi prokuror sanksiyasi (Belorus, Qozog'iston) yoki sud ruxsati (Rossiya, Ozarbayjon, Tojikiston, Moldova) bilan amalga oshiriladi. Qo'llanilish muddatlariga ko'ra ushbu chora qamoq ehtiyot chorasi bilan bir xil amalga oshiriladi. Faqatgina Moldovada uy qamog'i ehtiyot chorasi o'rtacha og'ir va og'ir jinoyatlar hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar uchun, shuningdek 60 yoshdan oshgan, birinchi guruh nogironi, homilador yoki 8 yoshgacha bolasi bor ayollar tomonidan sodir etilgan o'ta og'ir jinoyatlar uchun ham qo'llaniladi.

Insonning shaxsiy daxlsizlik huquqini cheklovchi choralarga taalluqli bo'lgan tibbiy muassasaga joylashtirish chorasi sud ruxsati (Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Armaniston, Moldova) yoki prokuror sanksiyasi

(Belorus) yoxud tergovchining qarori (Qirg‘iziston) yoki muqobil, ya’ni shaxs ochiqda bo‘lsa sud ruxsati bilan, agar qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanilgan bo‘lsa tergovchining qarori (Estoniya, Turkmaniston, Qozog‘iston) bilan qo‘llaniladi.

Shaxsning shaxsiy erkinliklarini cheklovchi choralar mujassamlashgan ikkinchi guruhning tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, hech qayerga ketmaslik va munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat ehtiyot chorasi Rossiya, Belorus va Qozog‘istonda xuddi shu mazmunda protsessual qonunchilikda o‘z aksini topgan. Ozarbayjon, Tojikiston, Armaniston, Qirg‘iziston, Ukraina, Turkmaniston va Estoniyada mazkur ehtiyot chorasi o‘zida munosib xulq-atvorda bo‘lishning elementlarini mujassamlashtirganligiga qaramasdan «Hech qayerga chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat»deb nomlanadi. Moldovada esa mazkur chora «Hududdan chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat va mamlakatdan chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat»larda namoyon bo‘ladi. Agar shaxsga nisbatan mamlakatdan chiqib ketmaslik to‘g‘risidagi tilxat qo‘llanilgan bo‘lsa uning doimiy yoki vaqtinchalik turarjoynarini tark etmaslik majburiyatlari tartibga solinmagan.

O‘rganilgan davlatlar orasida faqatgina Moldovada mazkur ehtiyot chorasi 30 kun muddatga qo‘llaniladi va zaruriyat tug‘ilganda prokuror tomonidan har biri 30 kundan oshmagan muddatlarga uzaytirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Insonning shaxsiy erkinliklarini cheklovchi choralardan keyingisi hisoblangan shaxsiy kafillik ehtiyot chorasingning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida bir va undan ortiq kafil (Rossiya), kamida ikki nafar kafil (Belorus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Estoniya, Tojikiston, Ukraina) hamda eng kami ikki nafar kafil va depozit hisob raqamiga muayyan miqdorda summa topshirilishi (Moldova, Armaniston, Ozarbayjon) talab etilishini keltirishimiz mumkin. Moldovada kafillar soni ikki nafardan besh nafargacha va har bir kafil depozit hisob raqamiga Moldova Jinoyat kodeksida belgilangan jarima miqdorining (odatda eng kam oylik ish haqi miqdoriga teng summa) 50 baravaridan 500 baravarigacha bo‘lgan summada mablag‘ topshirishi talab etiladi. Armanistonda esa, kamida ikki nafar kafil va har biri eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdoridagi summani depozit hisobiga topshirishi lozim. Ozarbayjonda esa kafillar soni ikki nafardan besh nafargacha va har bir kafil depozit hisob raqamiga eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdoridagi summani topshirishi lozimligi belgilangan.

O‘rganilgan davlatlardan Rossiya, Tojikiston, Estoniya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Belorusning protsessual qonunchiligidagi jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan. Turkmaniston va Ukraina protsessual qonunchiligidagi ko‘ra jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot chorasini qo‘llash uchun jamoaning yozma majburiyat olishi talab qilinsa, Moldova, Armaniston va Ozarbayjon protsessual qonunchiligidagi ko‘ra jamoaning yozma majburiyat olishi bilan bir qatorda muayyan miqdordagi summani depozit hisob raqamiga topshirishi talab qilinadi. Misol uchun, Moldovada jamoat birlashmasi yoki jamoa depozit hisob raqamiga Moldova Jinoyat kodeksida belgilangan jarima miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo‘lgan summada mablag‘ topshirishi talab etiladi. Armaniston va Ozarbayjonda esa, eng kam oylik ish haqining 1000 baravari miqdoridagi summani topshirishi lozimligi belgilangan.

Harbiy xizmatchi ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi ehtiyot chorasi o‘rganilgan barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi o‘z aksini topgan. Faqatgina Rossiya qonunchiligidagi mazkur ehtiyot chorasini qo‘llash uchun gumon qilinuvchi va ayblanuvchining roziligi talab etiladi. Moldovada esa mazkur ehtiyot chorasi prokuror yoki sud tomonidan qo‘llaniladi. Qirg‘izistonda mazkur chora ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan qo‘llaniladi, qolgan davlatlarda esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish ehtiyot chorasi o‘rganilgan davlatlardan faqatgina Ukraina protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilmagan. Rossiya, Armaniston va Estoniya qonunchiligidagi ko‘ra mazkur ehtiyot chorasi ishni yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxs yoki vakolatli organning to‘xtamiga asosan qo‘llanilsa, Moldova, Turkmaniston, Belorus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston protsessual qonunchiligidagi ko‘ra mazkur ehtiyot chorasi faqatgina voyaga yetmaganni kuzatuvga oluvchi shaxs yoki muassasaning yozma iltimosiga asosan ishni yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxs yoki vakolatli organ tomonidan qo‘llaniladi.

Chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyati chorasi Turkmaniston, Moldova, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Belorus va Rossiya protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Ozarbayjonda mazkur chora politsiya nazoratiga topshirish deb nomlanadi va o‘zida grafik asosida ishni yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxs yoki vakolatli organda hozir bo‘lish majburiyatini aks ettirgan. Tojikiston, Armaniston, Estoniya va

Ukraina protsessual qonunchiligidagi bunday majburlov chorasi nazarda tutilmagan.

Insonning shaxsiy erkinliklarini cheklovchi majburiy keltirish chorasi Ukraina protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilmagan, qolgan barcha o‘rganilgan davlatlar qonunchiligidagi ushbu chora aks ettirilgan. Qozog‘iston va Qirg‘iziston qonunchiligidagi qanday holatlar uzrli sabablarga ko‘ra chaqiruvga binoan kela olmaslik ekanligi qonun normasi bilan belgilab qo‘yilgan. O‘rganilgan boshqa davlatlarda esa bunday amaliyot mavjud emas. Moldova, Tojikiston, Rossiya va Belorusda 14 yoshga to‘limganlar, homilador ayollar va og‘ir kasalligi belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar majburiy keltirilmaydi, Ozarbayjonda esa, yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda xususiy ayblovchini ham majburiy keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Qirg‘iziston qonunchiligidagi esa majburiy keltirish mumkin bo‘limgan yosh 16 yosh deb belgilangan. Rossiya, Belorus, Qozog‘iston va Turkmaniston qonunchiligidagi 22.00dan 6.00ga qadar bo‘lgan tungi vaqtida mazkur majburlov chorasini amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Turkmaniston va Qozog‘istonda yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda 18 yoshga to‘limgan shaxslarni ularning qonuniy vakillarini ogohlantirmasdan majburiy keltirish mumkin emasligi tartibga solingan.

Shaxsning shaxsiy erkinliklarini cheklovchi shaxsiy tintuv o‘rganilgan barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Moldova va Ozarbayjonda mazkur harakat sudning ruxsati bilan, Turkmanistonda esa prokurorning sanksiyasi bilan amalga oshiriladi. Qirg‘izistonda shaxsiy tintuvni amalga oshiruvchi shaxs tintiluvchi shaxs bilan bir xil jinsda bo‘lishi, Turkmanistonda esa xolislarning ham tintiluvchi bilan bir jinsda bo‘lishi lozimligi talab etiladi. Belorus, Rossiya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Armaniston va Ozarbayjonda esa tintuvni amalga oshiruvchi, xolislari va mutaxassislarining ham tintiluvchi shaxs bilan bir xil jinsda bo‘lishi shartligi belgilangan.

O‘rganilgan davlatlar orasida faqatgina Moldovada boshqa davlatlarda mavjud bo‘limgan shaxsiy erkinliklarni cheklovchi yana bir qator choralar nazarda tutilgan. Masalan, haydovchilik huquqidagi mahrum qilish qo‘shimcha ehtiyyot chorasi sifatida transport bilan bog‘liq yoki transport vositasidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarda qo‘llaniladi. Shuningdek, Moldovada sud tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sud kontroli ostida vaqtinchalik qamoqdan ozod qilish ehtiyyot chorasi ham mavjud.

Mazkur chora o‘zida hech qayerga ketmaslik va munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat ehtiyot chorasi elementlarini qamrab oladi hamda sudlanganligi muddati tugamagan yoki olib tashlanmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Mazkur chora faqatgina ehtiyotsizlik yoki qasddan sodir etilgan va 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Endi bevosita o‘rganilgan davlatlarda insonning uy-joy va mulk huquqi daxlsizligini cheklovchi protsessual harakatlarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishga kirishsak. Garov ehtiyot chorasi o‘rganilgan barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Rossiya, Ukraina va Turkmanistonda garov ehtiyot chorasi ishni yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan qo‘llanilsa, Qozog‘iston, Belorus, Tojikiston va Qirg‘izistonda dastlabki tergovda prokurorning sanksiyasi, sudda esa sudning qarori bilan, Moldova, Estoniya, Armaniston va Ozarbayjonda esa faqat sudning ruxsati bilan qo‘llanilishi mumkin. Moldova, Armaniston va Ozarbayjonda mazkur ehtiyot chorasi faqatgina shaxsga nisbatan avval qo‘llanilgan qamoq ehtiyot chorasidan ozod qilish uchungina qo‘llanilishi mumkin. Rossiyada esa garov mustaqil ravishda yoki avval qo‘llanilgan uy qamog‘i yoxud qamoq ehtiyot choralarining o‘rniga qo‘llanilishi mumkin. Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Armanistonda garov miqdori sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib belgilanadi. Misol uchun, Qozog‘istonda uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun 100, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan o‘rtacha og‘ir jinoyatlar uchun 300, qasddan sodir etilgan o‘rtacha og‘ir jinoyatlar uchun 500, og‘ir jinoyatlar uchun esa eng kam oylik ish haqining 1000 baravari miqdorida garov belgilangan. Ukrainada esa ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar uchun 50, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun 500, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun esa eng kam oylik ish haqining 1000 baravari miqdorida garov summasi belgilangan. Armanistonda garov uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun 200, o‘rtacha og‘ir jinoyatlar uchun esa eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdorida belgilangan. Ozarbayjonda esa garov ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar uchun 5000, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar uchun eng kam oylik ish haqining 10000 baravari miqdorida belgilangan.

Moldovada garov ehtiyotsizlik yoki qasddan sodir etilgan va 25 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar

uchun qo‘llaniladi hamda Moldova Jinoyat kodeksida belgilangan jarima miqdorining 300 baravaridan 100000 baravari miqdorida belgilanishi mumkin. Rossiyada esa garovning minimal miqdori belgilanmagan. Tojikistonda mazkur ehtiyot chorasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun qo‘llanilmaydi va garovning minimal miqdori eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorida belgilangan. Belorusda garov eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdoridan kam bo‘lmasligi lozim va jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanmagan bo‘lsa, shuningdek og‘ir yoki o‘ta og‘ir zo‘ravonlik jinoyatlari uchun garov ehtiyot chorasi qo‘llanilishi mumkin emas. Turkmanistonda garov eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan kam bo‘lmasligi lozim. Agar garov ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan ayblov hukmi chiqarilsa garovning 20 dan 1 qismi davlat foydasiga o‘tkazilishi belgilangan. Qиргизистонда esa garov eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda belgilangan. Estoniyada esa garov summasi 500 kunlik ish haqi miqdorida belgilangan.

Shaxsning uy-joy va mulk huquqi daxlsizligini cheklovchi mol-mulkni xatlash chorasi Ukrainadan tashqari barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Armaniston, Qиргизистон va Belorusda mol-mulkni xatlash jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan qo‘llanilsa, Estoniyada prokuror sanksiyasi asosida, Turkmaniston va Qozog‘istonda prokuror sanksiyasi yoki sudning qarori asosida, Rossiya, Ozarbayjon, Moldova va Tojikistonda faqatgina sudning ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsning uy-joy va mulk huquqi daxlsizligini cheklovchi tintuv harakati o‘rganilgan barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi o‘z aksini topgan va uni o‘tkazishga ruxsat beruvchi mansabdor shaxslar va vakolatli organlar bilan bir-biridan farqlanadi. Estoniya, Ukraina, Qиргизистон, Belorus va Qozog‘istonda tintuv o‘tkazishga prokuror sanksiyasi talab etiladi. Rossiya, Moldova, Ozarbayjon va Armanistonda tintuv harakati faqatgina sudning ruxsati bilan o‘tkazilishi mumkin. Tojikistonda ham tintuv sudning ruxsati bilan o‘tkaziladi, kechiktirib bo‘lmas hollarda esa prokuror sanksiyasi bilan o‘tkazilishi mumkin va 24 soat ichida sudga xabar berilishi lozim. Turkmaniston protsessual qonunchiligiga asosan esa uy-joylarda tintuv harakati faqatgina qonunga xilof ravishda qurol, o‘qdori va portlovchi moddalar saqlash, juda ko‘p miqdorda giyohvandlik moddalari saqlash, Turkmaniston Jinoyat kodeksining 287, 291, 292-modda 3-qism, 294-modda 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatlar

bo‘yichagina o‘tkazilishi mumkin. Mazkur harakatni o‘tkazishga esa «Ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirishda qonuniylikni ta’minlash komissiya»si ruxsat berishi lozim.

Uy-joy va mulk huquqi daxlsizligini cheklovchi olib qo‘yish harakati barcha o‘rganilgan davlatlar qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Estoniya va Ukrainada olib qo‘yish ishni yuritayotgan shaxs qarori, Qirg‘izistonda prokuror sanksiyasi bilan amalga oshiriladi. Rossiya, Turkmaniston, Armaniston, Qozog‘iston hamda Belorusda davlat va boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan sirlar bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha olib qo‘yish prokuror sanksiyasi bo‘yicha, qolgan holatlarda esa ishni yurituvchi shaxs qarori asosida amalga oshiriladi. Moldovada esa davlat, tijorat, bank sirlari va telefon so‘zlashuvlari sud sanksiyasi bilan olib qo‘yilishiga ruxsat berilsa, qolgan holatlар bo‘yicha ishni yuritayotgan shaxsning qarori yetarli hisoblanadi. Ozarbayjonda olib qo‘yish faqat sudning ruxsati bilan o‘tkazilishi mumkin. Tojikistonda ham ushbu harakat sud ruxsati bilan o‘tkaziladi, lekin kechiktirib bo‘lmas holatlarda prokuror sanksiyasi bilan o‘tkazilishi mumkin va 24 soat ichida olib qo‘yish harakati natijalari yuzasidan sudga xabar beriladi.

So‘zlashuv va xabarlashuv huquqi daxlsizligi o‘rganilgan davlatlar protsessual qonunchiligidagi muayyan harakatlar bilan cheklanishi nazarda tutilgan. Pochta-telegraf va boshqa jo‘natmalarini xatlash shunday harakatlardan biri hisoblanib, barcha davlatlar qonunchiligidagi o‘z aksini topgan. Rossiya, Tojikiston, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Ukraina va Estoniyada mazkur harakat sud ruxsati bilan amalga oshiriladi. Belorus, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘izistonda esa ushbu harakatni amalga oshirish uchun prokuror sanksiyasi talab etiladi. Barcha davlatlarda mazkur harakat qarorda ko‘rsatilgan muddatga yoki ish bo‘yicha tergov tamomlangunga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish harakati Estoniyadan tashqari barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi o‘z aksini topgan. Estoniyada esa ushbu harakat protsessual qonun doirasida emas, balki «Operativ-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solingan. Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Belorusda mazkur harakat prokuror sanksiyasi, Rossiya, Ukraina, Armaniston, Tojikiston, Moldova va Ozarbayjonda sud ruxsati asosida amalga oshiriladi. Barcha davlatlarda mazkur harakat 6 oy muddatgacha amalga oshirilishi mumkin. Rossiyada mazkur harakat faqat og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar, shuningdek

zo‘ravonlik, qo‘rqitish, tovlamachilik jinoyatlari bo‘yicha esa jabrlanuvchilarning arizalari asosida amalga oshirilishi mumkin. Tojikistonda esa so‘zlashuvlarni eshitib turish og‘ir yoki o‘ta og‘ir, shuningdek qo‘rqitish, haqorat va tovlamachilik jinoyatlari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Moldovada mazkur harakat og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yichagina o‘tkazilishi mumkin. Shu bilan birga, Moldovada sudning sanksiyasisiz ushbu harakat 48 soatgacha, sanksiya bilan esa 30 sutkagacha amalga oshiriladi, keyinchalik har biri 30 sutkagacha, lekin 6 oylik muddatdan oshmagan vaqtgacha uzaytirilishi mumkin.

O‘rganilgan davlatlardan faqat Turkmaniston va Qozog‘istonda prokuror sanksiyasi bilan amalga oshiriladigan SMS¹, MMS² va elektron pochta jo‘natmalarini xatlashga xizmat qiladigan «xabarlarni xatlash» deb nomlangan alohida tergov harakati mavjud.

Mehnat qilish huquqini cheklovchi keyingi guruh choralar qatoriga kiruvchi lavozimdan chetlashtirish protsessual majburlov chorasi barcha davlatlar protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Turkmaniston va Qozog‘istonda mazkur protsessual majburlov chorasi ishni yuritayotgan mansabdor shaxs yoki organ tomonidan qo‘llanilishi mumkinligi tartibga solingan bo‘lsa, Estoniya, Ukraina, Belorus va Armanistonda prokuror sanksiyasi bilan qo‘llanilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Qирг‘изистонда esa prokuror sanksiyasi bilan yoki sudning qarori asosida mazkur majburlov chorasi qo‘llaniladi. Rossiya, Tojikiston, Moldova va Ozarbayjonda lavozimdan chetlashtirish sudning ruxsati bilan qo‘llanilishi lozimligi qonun bilan belgilangan. Turkmaniston, Qozog‘iston, Ukraina, Qирг‘изистон, Moldova va Estoniyada ushbu chora faqat ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qo‘llanilsa, Rossiya Tojikiston, Belorus, Armaniston va Ozarbayjonda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qo‘llaniladi.

Tojikiston va Qozog‘istonda lavozimdan chetlashtirilgan shaxs o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra ishga joylasha olmasa eng kam oylik ish haqi miqdorida nafaqa olish huquqiga egaligi belgilangan bo‘lsa, Belorusda bu ko‘rsatkich davlat tomonidan belgilanadigan nafaqa miqdoriga teng. Rossiyada esa hech qanday shartlarsiz lavozimdan

¹ SMS – inglizcha «Short Message Service» so‘zidan olingan bo‘lib, qisqa xabarlar xizmati tushunchasini anglatadi.

² MMS – inglizcha «Multimedia Messaging Service» so‘zidan olingan bo‘lib, multimediali xabarlar xizmati tushunchasini anglatadi.

chetlashtirilgan shaxs eng kam oylik ish haqining 5 baravari miqdorida nafaqa olish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan. Moldovada mazkur protsessual majburlov chorasi qo‘llanilgan shaxsga lavozimdan chetlashtirilgan muddati uchun haq to‘lanmaydi, lekin ushbu muddat umumiylashtirilgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish mexanizmi tartibga solinmagan.

Insonning tana daxlsizligi huquqi o‘rganilgan davlatlar protsessual qonunchiligidagi guvohlantirish tergov harakatlari orqali cheklanadi. O‘rganilgan aksariyat davlatlarda guvohlantirish gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarga nisbatan o‘tkaziladi. Faqatgina Belorusda guvohlarga nisbatan guvohlantirish o‘tkazish qonunda nazarda tutilmagan. Estoniya, Ukraina, Rossiya, Belorus va Armanistonda guvohlantirish to‘g‘risidagi qaror ishtirokchilar uchun majburiy hisoblanadi. Turkmaniston, Qozog‘iston va Tojikistonda guvohlantirish to‘g‘risidagi qaror faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchi uchun majburiy hisoblanadi. Turkmaniston va Qozog‘istonda guvoh va jabrlanuvchini majburiy tartibda guvohlantirish uchun prokuror sanksiyasi talab etiladi. Tojikistonda jabrlanuvchi va guvohni majburiy tarzda guvohlantirish o‘tkazish tartibi qonunda nazarda tutilmagan. Moldova va Ozarbayjonda guvohlantiriluvchi shaxsning roziligi bilan ixtiyoriy yoki sudning sanksiyasi asosida majburiy tarzda o‘tkaziladi. Qirg‘izistonda guvohlantirishning ixtiyoriy yoki majburiy ekanligi qonun bilan tartibga solinmagan.

Moldovada jinoyatning yaqqol belgilari mavjud bo‘lgan hollarda sudning sanksiyasisiz amalga oshirilishi mumkin, lekin 24 soat ichida sudga bu haqida xabar berilishi lozim. Ozarbayjonda gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan guvohlantirish o‘tkazish jarayonida ularning himoyachisi ishtirok etish huquqiga ega. Barcha davlatlarda ishni yuritayotgan vakolatli shaxs boshqa jinsdagi shaxsni yalang‘ochlash bilan bog‘liq holda guvohlantirish o‘tkazish jarayonida ishtirok etolmaydi va bunday guvohlantirish shifokor yoki mutaxassis tomonidan o‘sha jinsdagi xolislari ishtirokida o‘tkaziladi. Faqatgina Moldova, Turkmaniston va Ukrainada guvohlantirish o‘tkazish jarayonida guvohlantiriluvchi shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki sog‘lig‘i uchun xavfli harakatlarni sodir qilish taqiqlanishi qonun normasida aks ettirilgan. Shu bilan birga, faqat Rossiyada boshqa jinsdagi shaxsni yalang‘ochlash bilan bog‘liq holda guvohlantirish o‘tkazish jarayoni guvohlantiriluvchi

shaxsning roziligi bilan fotosuratga, video yozuv yoki kino tasvirga olinishi mumkin.

Xulosa o‘rnida yuqorida tahlil qilingan davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchilikida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi huquqlarini cheklash tartibi va holatlarining quyidagi ijobjiy tajribasidan milliy protsessual qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

– ushlab turish muddatini 48 soat sifatida belgilash va sudning ruxsati bilan yana 72 soatga uzaytirilishi tartibini amaldagi JPKda aks ettirish;

– munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat ehtiyyot chorasi ni 30 kun muddatga qo‘llash va zaruriyat tug‘ilganda prokuror tomonidan har biri 30 kundan oshmagan muddatlarga uzaytirilishi mumkinligini nazarda tutuvchi JPKga yangi tartibni joriy qilish. Bu mazkur ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan shaxsni nazorat qilishga bevosita xizmat qiladi;

– shaxsiy kafillik ehtiyyot chorasida kafillar sonini ikki nafardan besh nafargacha belgilash va har bir kafil depozit hisob raqamiga muayyan miqdordagi summani topshirishini joriy qilish;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar nazoratiga topshirish ehtiyyot chorasi ni joriy qilish va jadval asosida ishni yuritishga mas’ul bo‘lgan mansabdar shaxs yoki vakolatli organda hozir bo‘lish majburiyatini kiritish;

– chaqiruvga binoan kelmaslikda qanday holatlar uzrli sabablar ekanligini JPK normasi bilan belgilab qo‘yish;

– shaxsiy tintuvda tintuvni amalga oshiruvchi, xolislar va mutaxassislarning tintiluvchi shaxs bilan bir xil jinsda bo‘lishi shartligini belgilash;

– garov miqdorini sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfiliyi va yetkazilgan zarar miqdoridan kelib chiqib belgilanishi tartibini joriy etish;

– olib qo‘yishni faqat sudning ruxsati bilan o‘tkazilishi, kechiktirib bo‘lmas holatlarda prokuror sanksiyasi bilan o‘tkazilishi mumkinligi va 24 soat ichida olib qo‘yish harakati natijalari yuzasidan sudga xabar berish tartibini joriy qilish;

– prokuror sanksiyasi bilan amalga oshiriladigan SMS, MMS va elektron pochta jo‘natmalarini xatlashga xizmat qiladigan «xabarlarni xatlash» deb nomlangan alohida tergov harakatini amaldagi JPKga kiritish;

– guvohlantirish o‘tkazish jarayonida guvohlantiriluvchi shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki sog‘lig‘i uchun xavfli harakatlarni sodir qilish taqiqlanishi guvohlantirishni tartibga soluvchi qonun normasida aks ettirish.

G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI VA AQSH QONUNCHILIGIDA SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING ASOSLARI VA TARTIBI

Mamlakatimiz jinoiy ish yuritushi jarayonida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan bog'liq huquqiy normalarni qo'llash amaliyoti shaxsni davlat organlari tomonidan jinoiy-protsessual faoliyat doirasiga (sohasiga) jalb qilish va bunda uning huquq va erkinliklari cheklanishi sababli ularni ta'minlashga oid bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda rivojlangan demokratik davlatlarning ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini o'rganib, eng maqbul jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, bevosita xorijiy davlatlar jinoyat protsessida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqiy maqomi va ularni chegaralash institutlari qanday tartibga solinganligini ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

Hozirgi davrda yurisprudensiya, falsafa, sotsiologiya va psixologiya va boshqa bir qator fanlarda dunyoda ustunlik qilayotgan ikki – Roman-german va Anglo-sakson huquqiy modellarini farqlaydi.

Bu ikki modeldan iborat huquq tizimlari ham o'z mohiyatiga ko'ra kontinental huquq tizimi va ayrim MDH davlatlari huquq tizimlaridan farqlanadi.

Roman-german modeli asosida qurilgan jinoyat-protsessual qonun ayblov tavsifiga ega. Bunday huquqiy tizimda davlat shaxsni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish va jamoat tartibini saqlash majburiyatini o'z zimmasiga olganligidan kelib chiqqan holda, mansabdar shaxslar va vakolatli davlat organlari shaxsga ayblov e'lon qiladilar, sud esa ishni mazmunan ko'rib chiqib hal etadi.

Anglo-sakson modeli asosida qurilgan jinoyat-protsessual qonun esa da'vo tipiga xosdir. Bunda da'vo ayblov shakli emas, balki da'vo bartaraf etilgunga qadar amalga oshiriladigan jinoiy ta'qib ish yurituvining tarkibiy qismidir. Agar taraflar da'vodan voz kechsa, jinoiy ish yurituv shu zahoti tugatiladi.

Roman-german huquq tizimining yaqqol ifodasi sifatida Avstriya respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Avstriya jinoiy-protsessual nazariyasida gumon qilinuvchining jinoiy ish yuritividagi ishtirokini ifodalovchi atamalarni ajratishga jiddiy e'tibor

berilmaydi. Shuning uchun bir qator Avstriya olimlari ayblanuvchi sifatida unga nisbatan muayyan jinoyat ishi bo‘yicha ish yurituv olib borilayotgan jismoniy shaxs tan olinishi lozim degan fikrni ilgari suradilar¹. Shu bilan birga, bu shaxs jinoyat ishini yuritishning har xil bosqichlarida o‘ziga xos nomlar bilan ataladi: ya’ni, jinoiy ta’qibni qo‘zg‘atishda – gumon qilinuvchi; dastlabki tergovni boshlash haqida qaror yoki ayblov akti qabul qilinganda – ayblanuvchi; sud muhokamasi boshlangandan to hukm chiqarilgunga qadar – sudlanuvchi. Bu o‘rinda V. N. Butovning, «...Avstriya Jinoyat-protsessual kodeksida² bu atamalar hamma vaqt ham bir xilda qo‘llanilavermaydi»³, degan fikrini keltirib o‘tish joizdir.

Ta’kidlash joizki, Avstriya jinoyat protsessida gumon qilinuvchi bu – unga nisbatan ayblov akti chiqarilgunga qadar sud ish yurituvi olib borilayotgan shaxsdir.

Avstriya jinoyat protsessida dastlabki ish yuritish dastlabki tergov va shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilishdan iborat. Bunda dastlabki ish yurituv surishtiruv yoki dastlabki tergov yoxud aralash (dastavval surishtiruv keyin dastlabki tergov o‘tkazish) shakllarda olib borilishi mumkin⁴.

Avstriya JPKning 88 § 1-xatboshida surishtiruvning asosiy vazifasi sifatida jinoyat sodir qilishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan jinoiy ta’qibni qo‘zg‘atishga sabab va yetarli asoslar mavjudligini aniqlash e’tirof etilgan.

Shunday qilib, Avstriya jinoyat-protsessual ish yurituvining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida gumon qilinuvchi O‘zbekistonning jinoiy-protsessidan farqli ravishda majburiy ishtirokchi hisoblanadi.

Avstriyaning Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchiga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan quyidagi – politsiya va sudga chaqirish, majburiy keltirish, vaqtinchalik ushlab turish, dastlabki qamoq protsessual majburlov choralar ko‘zda tutilgan.

¹ Qarang: *Roeder H.* Lehrbuch des österreichischen Stafverfahrensrechtes. Wien, 1976. S. 211, *Bertel Chr.* Grundriss des österreichischen Strafprozessrechts. Wien, 1975. S. 123-124.

² Izoh: hozirgi vaqtda Avstriyada 1975-yil 9-dekabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi amal qilmoqda.

³ Qarang: *Бутов В.Н.* Уголовный процесс Австрии. – Красноярск, 1988. – C. 87.

⁴ O‘sha manba. – C. 41.

Vaqtinchalik ushlab turish ko‘plab Avstriya protsessualist olimlari tomonidan gumon qilinuvchini dastlabki tergov yoki sudda, keyingi ko‘rsatmalar kelib tushgunga qadar, ishtirokini ta’minlash maqsadida uning erkinligini qisqa muddatga cheklash sifatida ta’riflanadi¹. Avstriya JPKning 175§ga asosan quyidagi hollarda vaqtinchalik ushlab turish mumkin:

- agar gumon qilinuvchi bevosita jinoyat ustida yoki uni sodir qilib bo‘lganidan keyin qo‘lga tushsa yoki agar jinoyat shohidlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri uni sodir etilgan jinoyatga aloqadorligi haqida ko‘rsatuvsular bersa, yoxud u jinoyat sodir etilgan qurol yoki uning jinoyatga aloqadorligini ko‘rsatuvchi boshqa predmetlar bilan qo‘lga tushsa;
- agar gumon qilinuvchi, ijtimoiy xavflilagini saqlab qolgan holda, sodir qilgan jinoyati uchun javobgarlikdan qutilib qolish maqsadida yoki boshqa sabablarga ko‘ra yashirinayotgan yoxud yashirinishi mumkinligi xavfi bo‘lsa;
- agar ayblanuvchi ochiqda qolsa, tergov va suddan yashirinishi; guvoh, ekspert yoki jinoyat ishtirokchilariga ta’sir o‘tkazish yoxud jinoyat izlarini yo‘qotish bilan jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sinqinlik qilsa yoki boshqa sabablarga ko‘ra jamiyat uchun xavfli hisoblansa;
- agar gumon qilinuvchi ochiqda qolsa yangi jinoyat sodir qilishi mumkin degan taxmin qilishga yetarli asos mavjud bo‘lsa yoki u yangi jinoyat sodir qilishga urinishlar qilgan bo‘lsa yoki so‘zlarida yangi jinoyat sodir qilishi haqida gapirib o‘tgan bo‘lsa.

Majburiy ushlab turish instituti diqqatga sazovordir. Unga ko‘ra sodir etilgan jinoyat uchun 10 yildan kam bo‘lman ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jinoyatni sodir qilganlikda gumon qilinayotgan shaxsni har qanday holatda ham ushlab turishni taqozo qiladi.

Ushlab turishni amalga oshirish uchun yuqorida sanab o‘tilgan sabablar bilan birga ishni ko‘rib chiqayotgan sudyaning yozma buyrug‘i ham bo‘lishi lozim. Qisqa muddatli ushlab turish haqida yozma buyruq mavjud bo‘lman taqdirda, shaxsni sudya huzuriga olib kelish maqsadida faqat shaxs bevosita jinoyat ustida qo‘lga tushsa, shuningdek gumon qilinuvchi yashirinishi yoki yangi jinoyat sodir qilishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo‘lganidagina xavfsizlik organi yoki tergov olib

¹ Zarl J. Die vorläufige Verwahrung. ÖRZ, 1960, Nr. 3. S. 31-34; Serini E. Die praktische Anwendung der Verwahrungs – und Untersuchungshaft. ÖJZ, 1953, Heft 11. S. 283 – 291.

borish vakolatiga ega bo‘lмаган судя томонидан qisqa muddatga ushlab turishga yo‘l qo‘yiladi (Avstriya JPKning 177 § 1-xatboshi). Bunday holatda gumon qilinuvchi 48 soat ichida ishni yuritayotgan судя huzuriga olib borilishi kerak.

Ushlangan gumon qilinuvchi sudga olib kelinganidan so‘ng 24 soatdan kechiktirilmay yoki ushlangan paytdan boshlab 3 kunlik muddat ichida (bunda u nima sababdan avvalroq so‘roq qilinmaganligi so‘roq bayonnomasida o‘z aksini topishi lozim) so‘roq qilinishi lozim. Tergov sudyasi so‘roq qilib bo‘lganidan so‘ng yo gumon qilinuvchini ozod etish, yo o‘rnatilgan tartibda dastlabki qamoq qo‘llash haqidagi qarorlardan birini qabul qiladi.

Avstriya JPKning 180 § 5-xatboshiga asosan gumon qilinuvchiga nisbatan dastlabki qamoqqa muqobil tarzda quyidagi choralar qo‘llanilishi mumkin: yashirinishga urinmaslik va tergov sudyasi ruxsatisiz yashash joyini o‘zgartirmaslik majburiyati; ish yurituvga to‘sinqilik qiladigan harakatlarni sodir qilmaslik haqida va’da; ko‘rsatmalarga amal qilish, ma’lum joyda yoki oilada yashash, taqiqlangan joylarda bo‘lmaslik yoki ruxsat etilmagan shaxslar bilan muloqotda bo‘lmaslik, spirtli yoki boshqa mast qiluvchi vositalarni iste’mol qilmaslik haqida va’da; ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zining bo‘lish va turarjoyi haqida sudni xabardor qilish; shaxsini tasdiqlovchi yoki haydovchilik guvohnomasini vaqtinchalik olib qo‘yish; kafillikka berish; garov.

Shunday qilib, Avstriyada gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqiy maqomini quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

birinchidan, «gumon qilinuvchi» atamasi «unga nisbatan jinoiy ish yurituv olib borilayotgan shaxs» atamasi bilan uyg‘unlashib, bir butun ma’noni anglatadi. Jinoyat ishi bo‘yicha yurituvning rivojlanish darajasiga ko‘ra bunday shaxs gumon qilinuvchidan ayblanuvchiga, keyinchalik sudlanuvchiga aylanadi. Bu jarayonlarda unga avvaldan keng qamrovli zaruriy protsessual huquqlar berilgan (o‘z ona tilida ko‘rsatuylar berish; e’lon qilingan jinoiy da’voni inkor etuvchi unga ma’lum barcha ma’lumotlarni taqdim qilish; qisqa vaqt ichida o‘ziga nisbatan yuzaga kelgan gumon va ularning asoslari haqida xabardor bo‘lish; himoyachi xizmatidan foydalanish; turli tergov hujjatlarining nusxasini olish va hokazolar) va keyinchalik ayblanuvchi yoki sudlanuvchi maqomiga ega bo‘lishiga qarab o‘ziga xos, faqat muayyan bosqichga taalluqli huquqlarga (masalan, ayblov aktining qabul qilinganidan boshlab vujudga keladigan va keyingi 14 kun ichida amal qiladigan ayblov

aktiga e'tiroz bildirish huquqi) ega bo'ladi. Aynan shu orqali V. N. Butov tomonidan qayd etilgan «gumon qilinuvchi – ayblanuvchi – sudlanuvchi» atamalar tizimiga rioya qilish majbur emasligini izohlash mumkin¹;

ikkinchidan, Avstriya jinoyat protsessida shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e'tirof etish asosida unga nisbatan protsessual majburlov choralarini qo'llash imkoniyati mavjudligi emas, balki unga nisbatan jinoiy ish yuritilayotganligi belgisi yotadi. Bunda unga nisbatan jinoiy ish yurituv olib borayotganligining isboti sifatida unga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorning chiqarilishi emas, balki shaxs aybini fosh qiluvchi ma'lumotlarni olishga yo'naltirilgan har qanday protsessual harakatlarning (so'roq qilish, ko'zdan kechirish va boshqalar) amalga oshirilishi hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari orasida Germaniyaning jinoiy-protsessual qonunchiligi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Nemis protsessualistlarining fikricha, Germaniya jinoyat protsessi «klassik» inkvizasion va tortishuvchanlikka asoslangan protsessdan farqli ravishda o'ziga xos ayblov-tergov turiga xosdir². Uning o'ziga xos jihatni dastlabki tergov bosqichi protsessual normalar bilan aniq (qat'iy) belgilanmaganligi hisoblanadi.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki, Germaniya jinoyat-protsessual nazariyasida «gumon» tushunchasi dastlabki tergovning barcha bosqichlari uchun, shuningdek tegishli yo'nalishlar uchun konseptual asos bo'lib hisoblanadi. Masalan, Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining³ 112 § asosan agar ayblanuvchi jinoyat sodir qilganlikda jiddiy gumon qilinayotgan bo'lsa va qamoqqa olish uchun asoslar mavjud bo'lsagina u qamoqqa olinishi mumkin; surishtiruvning vazifasi gumon mavjudligi masalasini oydinlashtirish; 169d§ asosan gumon qilinuvchining shaxsini aniqlash va tekshirish nazarda tutilganligi va hokazolar.

GFR jinoyat protsessi nazariyasida gumon faktlarga asoslangan va tekshirish imkoniyati mavjud xususiyatga ega bo'lgan tarixiy nuqtai nazardan bashorat xulosasi sifatida ta'riflanadi⁴. Bu nazariyaga ko'ra har qanday muhim protsessual qaror qabul qilishda asos sifatida gumon qo'yilishi lozim. Gumon esa ehtimollik darajasiga ko'ra oddiy – minimum,

¹ Бутов В.Н. Уголовный процесс Австрии. – Красноярск, 1988. – С. 87.

² Roxin C. Strafverfahrensrecht. München, 1995. S. 89.

³ Izoh: Birlashgan Germaniyada 1877-yilda qabul qilingan va 1987-yil 7-aprelda qayta tahrirdan o'tgan Jinoyat-protsessual kodeksi amal qiladi.

⁴ Kühne H. Strafprozeßlehre. Strasburg, 1988. S. 121.

ya’ni surishtiruvni boshlash uchun yetarli bo‘lgan, yetarli – ayblanuvchiga nisbatan sud muhokamasini boshlash uchun yetarli dalillar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi va jiddiy – bunday gumon mavjud bo‘lganda eng og‘ir davlat majburlovi bo‘lgan – qamoqqa olishni qo‘llash mumkin bo‘ladi.

GFR jinoyat protsessida muayyan shaxsga nisbatan ayblov faqat dastlabki tergovning yagona shakli hisoblangan surishtiruv tamomlangandan keyingina prokuror tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda, Germaniya jinoyat-protsessual ish yurituvining sud bosqichidagina ayblanuvchi sudlanuvchi sifatida paydo bo‘ladi. Biroq Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining dastlabki tergovga bag‘ishlangan normalarida bir necha bor «ayblanuvchi» deb atalgan ishtirokchiga duch kelishimiz mumkin. Bu esa Germaniya jinoiy ish yurituvida «gumon qilinuvchi» va «ayblanuvchi» atamalarining farqi qonun bilan tartibga solinmagan degan xulosaga olib keladi. Bu xususda B. A. Filimonovning Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksida «ayblanuvchi» atamasi yuzasidan «...nomigagina, shartli mavjud bo‘lib, uning protsessual maqomini belgilab bermaydi. O‘zining protsessual maqomi bilan ayblanuvchi gumon qilinuvchidan aslo farq qilmaydi va bunday maqom bilan butun ish yuritubi jarayonida ishtirok etadi»¹, deya bildirgan fikrlarini o‘rinli deb hisoblashimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, *birinchidan*, Germaniya dastlabki tergovida gumon qilinuvchi (jinoyat sodir qilgan shaxs prokuror yoki politsiya tomonidan aniqlanganda) zaruriy ishtirokchi hisoblanadi; *ikkinchidan*, Avstriya jinoyat protsessida bo‘lgani kabi shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e’tirof etish uchun ma’lum yuridik faktlar qat’iy belgilanmagan.

Avstriya va Germaniyaning jinoyat protsessidan Angliya jinoyat protsessi tubdan farqlanadi. Anglo-sakson huquq tizimida «jinoyat protsessi» tushunchasi birinchi navbatda sud jarayoni bilan bog‘lanadi. Bunday yondashuv natijasida Angliyada sudga qadar ish yurituv bosqichiga, kontinental turdag‘i jinoyat protsessi amal qiladigan davlatlarga nisbatan, ham qonuniy tartibga solishda, ham jinoiy-protsessual nazariyada kam ahamiyat berilganligiga ajablanmasa ham bo‘ladi.

Shunga qaramasdan, nazariyada ham, huquqda ham, sudga qadar ish yuritishning bir qator muhim va ahamiyatli jihatlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

¹ Qarang: Уголовный процесс западных государств: Учебное пособие / Под ред. К.Ф. Гуценко. – М., 2001. – С. 423.

Shu o‘rinda Angliya protsessualist olimlari tomonidan jinoyat protsessini «jinoiy-protsessual qarorlar qabul qilinadigan, jinoyat haqidagi xabarni qayd qilish yoki gumon qilinuvchini hibsga olishdan boshlab mahkumni muddatidan oldin shartli ozod qilish yoki mahkumning xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatish haqidagi sud buyrug‘ini bekor qilishga qadar bo‘lgan bosqichlar yig‘indisi»¹ sifatida ta’riflanganligini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchadan kelib chiqqan holda, Angliya jinoyat protsessida ham gumon qilinuvchi mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bundan tashqari, shaxs ayblanuvchi sifatida (bizning tushunchamizda) sudga qadar ish yurituvning yakunlovchi etaplarida (masalan, politsiya tomonidan to‘plangan barcha ayblovchi ma’lumotlar Qirollik ta’qib xizmatiga yuborishdan oldin) paydo bo‘lishini hisobga olsak, unda politsiya tomonidan muayyan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun amalga oshiriladigan protsessual faoliyat nuqtai nazaridan gumon qilinuvchi – Angliya jinoyat protsessining majburiy ishtirokchisidir.

Gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlarining Angliya jinoyat protsessida tartibga solinishining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u individual tarzda gumon qilinuvchi va dastlabki tergov (politsiya, bojxona xizmati, soliq xizmati) organlari o‘rtasida yuzaga keladigan muayyan huquqiy holatlarga nisbatan (umume’tirof etilgan shaxs huquq va erkinliklari sohasidagi cheklolvar bilan bog‘liq holda) amalga oshiriladi va bu ilgari qayd etilgan sudgacha ish yurituv bosqichini o‘ziga xos anglosakson nuqtai nazar bilan tushuntiriladi. Masalan, politsiya tomonidan gumon qilinuvchini hibsga olish (O‘zbekiston jinoyat protsessidagi ushlab turishga mos keladi) jarayonini tartibga solish va ushlanganlarning huquqlarini ta’minalash shartlari 1984-yilda qabul qilingan «Politsiya va jinoiy dalillar haqida»gi qonun, shuningdek 1999-yilda qabul qilingan «Odil sudlovga erishish haqida»gi qonunlarga asosan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra:

a) politsiya tomonidan hibsga olish holatlari cheklangan (faqat gumon qilinuvchining shaxsi yoki turarjoyi noma’lum bo‘lsa yoxud gumon qilinuvchi o‘zi haqida bergen ma’lumotlar to‘g‘riligiga shubha uyg‘onsa; gumon qilinuvchi tomonidan boshqa shaxslarga yoki mulk shakllariga yoxud gumon qilinuvchining o‘ziga nisbatan jismoniy ta’sir o‘tkazishini

¹ Qarang: *Ashworth A. Sentencing and Criminal Justice*. 2-ed. – London, 1995. – P. 13.

oldini olish maqsadida hibsga olish zarur deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo‘lsa; gumon qilinuvchining takroran jinoyat sodir qilishini oldini olish uchun hibsga olish zarur bo‘lsa; bolalar yoki himoyasiz shaxslarni gumon qilinuvchining harakatlaridan muhofaza qilish lozim bo‘lganda hibsga olish qo‘llanilishi mumkin);

b) hibsda saqlash muddatlari cheklangan (bir qator jinoyat turlari bo‘yicha uning davomiyligi 24 soatdan oshmasligi lozim, biroq «hibsga olishga sabab bo‘ladigan jiddiy jinoyat»¹ sodir qilganlikda gumon qilib hibsda saqlash muddati politsianing yuqori mansabdor shaxsi tomonidan 36 soatgacha uzaytirilishi mumkin, bu muddatning yana uzaytirilishi faqat magistrat sudining qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi);

d) ushlangan shaxsning bir qator huquqlari belgilangan (masalan, Politsiya va jinoiy dalillar haqidagi qonunning 58-moddasida hibsga olingan gumon qilinuvchi ushlangan paytdan boshlab advokat xizmatidan foydalanish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, advokatning ishda ishtirok etish muddati chegaralanmagan va u gumon qilinuvchining barcha so‘roqlarida ishtirok etishi mumkin);

e) mazkur huquqlarni ta’minlashda mansabdor shaxslarning majburiyatları belgilab berilgan (har bir ushlangan shaxs ushlab turish boshlangan vaqtidan boshlab 6 soat ichida, keyinchalik esa har 9 soatda «nazorat qiluvchi ofitser» oldiga olib borilishi majburiy).

Angliya tajribasiga AQSH jinoyat protsessi yaqin turadi. Lekin sudgacha ish yurituv va protsessual majburlov choralarini qo‘llash tartibini tahlil qilib, AQSH jinoyat protsessida gumon qilinuvchi bu – tergov organi tomonidan jinoyat sodir qilganlikda ayblastish uchun unga nisbatan dalillar to‘plash faoliyati amalga oshirilayotgan va shu munosabat bilan uning ishtirokida tergov harakatlari o‘tkazish orqali bevosita tergov sohasiga jalb qilingan yoki unga nisbatan jinoiy-protcessual majburlov choralarini qo‘llanilgan shaxsdir deyishimiz mumkin.

Angliya jinoyat protsessida bo‘lgani kabi AQSHda sudgacha ish yurituv bosqichi sud bosqichi²ga nisbatan qonuniy jihatdan¹ ancha

¹ Izoh: Angliyaning 1967-yilda qabul qilingan «Jinoyat huquqi haqida»gi qonuniga asosan barcha jinoyatlar ikki turga bo‘linadi. Ya’ni: besh va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar «hibsga olishga sabab bo‘luvchi» qolganlari esa «hibsga olishga sabab bo‘lmaydigan» jinoyatlar.

² Qarang: Уголовный процесс западных государств: Учебное пособие / Под ред. К.Ф. Гуценко. – М., 2001. – С. 161.

sayozroq tartibga solingan. Shunga qaramasdan Amerika jinoiy ish yurituvda gumon qilinuvchining ishtirokini huquqiy tartibga solinishi ancha to‘laroq o‘z ifodasini topgan. Masalan, sudga qadar ish yurituv jarayonida politsiya tomonidan amalga oshiriladigan eng ko‘p harakatlardan biri bo‘lgan gumon qilinuvchini so‘roq qilishga katta e’tibor qaratilgan. «Amerikacha» so‘roq qilishning o‘ziga xos jihatni, uning natijalarini qayd qilishning qat’iy tartibi mavjud emasligida (misol uchun, so‘roq bayonnomasini rasmiylashtirilishi majburiy emas). Shu bilan birga, qonun va sud amaliyotida so‘roqni amalga oshirish tartib-qoidalariiga nisbatan muayyan talablar belgilab berilgan. Bu talablarning ko‘p qismi AQSH Oliy sudining Eskobedo (1964-y.) va Miranda (1966-y.) ishlari yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorlarida o‘z aksini topgan.

Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- har doim so‘roq qilinuvchini so‘roq qilishdan oldin, u ko‘rsatuv bermaslik huquqiga egaligi, u bergen har qanday ko‘rsatuv unga qarshi dalil sifatida ishlatilishi mumkinligi, shuningdek himoyachi xizmatidan foydalanish huquqi borligi haqida ogohlantirilishi (xabardor qilinishi) lozim;
- agar so‘roq qilinuvchi ko‘rsatuv berishdan avval himoyachi bilan uchrashish istagini bildirsa, unga hech savollar berilishi mumkin emas;
- himoyachi bilan uchrashish istagi qondirilmasdan so‘roq qilingan gumon qilinuvchining aybni bo‘yniga olish haqidagi ko‘rsatuvlari nomaqbul dalil hisoblanadi²;
- gumon qilinuvchi himoyachi bilan uchrashish istagini bildirmagan hollarda, AQSH qonunlari to‘plamining 18-bo‘lim 3501 § «S» bandiga asosan agar gumon qilinuvchi hibsga olingandan boshlab to sudya

¹ Izoh: AQSHda jinoiy-protsessual munosabatlar yozilgan huquq (AQSH Konsitutsiyasi (1787-y.), AQSH qonunlari majmuasi (1948-yildagi qo‘srimcha va o‘zgartirishlar bilan qayta tahriri)ning «Jinoyat va jinoyat protsessi» (18-bo‘lim) va «Sud ish yuritvi va sud jarayoni» (28-bo‘lim) bo‘limlari, shtatlarning jinoiy-protsessual qonunlari va boshqalar), qonun osti aktlari (Jinoyat protsessining Federal qoidalari (1944-y.), Isbotlashning Federal qoidalari (1972-y.), AQSH Oliy sudi qoidalari (1980-y.) va boshqalar) hamda yozilmagan huquq(muayyan jinoyat ishlari yuzasidan AQSH Oliy sudining qarorlari) normalarining murakkab majmui sifatida ta’riflanadi.

² Izoh: mazkur qoidalari amaldagi JPKga O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2008-yil 31-dekabr qonuni bilan kiritilgan.

huzuriga olib kelingunga qadar o‘tgan vaqt 6 soatdan oshmagan bo‘lsa, uning aybni bo‘yniga olish haqidagi ko‘rsatuvlari maqbul hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur qoidalar hibsga olingan shaxslarni so‘roq qilish jarayoniga taalluqli bo‘lsa-da, amalda ular gumon qilinuvchini so‘roq qilishning barcha holatlarida tatbiq qilinadi. Chunki AQSHda har bir jinoyat ishi, hatto kam ahamiyatli qilmishlar bo‘yicha ish yurituv hibsga olish yoki tintuv o‘tkazishdan boshlanadi¹. Bundan tashqari, AQSH Oliy sudi Orozko (1966-y.) ishi bo‘yicha qaror qabul qilishda Miranda va Eskobedo qoidalarini qo‘llash shartlarini aniqlashtirib, «har qanday ushslash yoki politsiya tomonidan erkin harakatlanishning cheklanishi hibsga olishdir» deb ko‘rsatgan.

Umuman olganda, AQSH jinoyat protsessida hibsga olish universal vosita bo‘lib, nafaqat erkinlikni cheklashning² bir necha turlari sifatida, balki gumon qilinuvchini jinoyat protsessual faoliyatga jalg qilish usulini anglatadi. Shunday tarzda M. A. Peshkov: «...AQSH jinoyat protsessida hibsga olish insonning erkinligini qamoqqa olish tarzida cheklaydigan protsessual majburlov chorasi bo‘lib o‘zida muhim, qo‘srimcha funksiyani – muayyan shaxsga nisbatan jinoiy ta’qibni qo‘zg‘atish vazifasini ham bajaradi»³, deya ta’kidlaydi. Hibsga olishni qo‘llash tartibi ham AQSH jinoyat protsessida aniq va to‘la tartibga solingan.

Shu jumladan, qoida tariqasida, gumon qilinuvchini hibsga olish uchun politsiya tegishli ma’lumotlarni to‘plashi lozim va sudga shaxsni hibsga olishga buyruqni (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksidagi qamoqqa olish ehtiyyot chorasini qo‘llashga o‘xhash) berish haqidagi iltimosnama bilan murojaat qilishi kerak. Kechiktirib bo‘l-maydigan hollarda (bizdagi ushlab turish kabi) shaxs sud buyrug‘isiz ham hibsga olinishi mumkin, lekin bunday hollarda hibsga olishning qonuniyligini tekshirish uchun ushlangan shaxsni sudga «imkoniboricha zudlik bilan» olib borilishi shart. Qiziqarli tomoni shundaki, amaliyotda hibsga olish aksariyat hollarda sud buyrug‘igacha qo‘llaniladi⁴.

¹ Karlan J., Skolnich J. Criminal justice: introductory cases and materials. Mineola, 1992. – P. 113.

² Izoh: AQSH jinoyat protsessida shaxsni qamoqqa olishning turli shakllari umumiyligi «hibs» atamasi bilan qamrab olingan. Biroq, tushunarliroq bo‘lishi maqsadida, biz uni O‘zbekiston jinoyat protsessida mavjud bo‘lgan ushlab turish va ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

³ Пешков М.А. Арест и обыск в уголовном процессе СИЗА. – М., 1998. – С. 29.

⁴ Гуценко К.Ф. Основы уголовного процесса СИЗА. – М., 1993. – С. 41.

Ushlab turishda politsiya xodimi gumon qilinuvchini shaxsiy tintuv qilishi va ish bo'yicha dalil sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan quroq yoki narsalarni olib qo'yishga haqli. Shundan so'ng u hibsga olinganlarni saqlab turish joylariga olib boradi va darhol maxsus politsiya jurnalida tegishli tartibda ushlanganlik fakti albatta qayd etiladi. Mazkur jurnalda gumon qilinuvchining ismi-sharifi, olib kelingan vaqt, shuningdek sodir qilganlikda gumon qilinib ushlab turilgan jinoyatning qisqacha tafsiloti o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ushlangan shaxsga qanday jinoyat sodir qilganlikda gumon qilinayotganligi tushuntiriladi va xohlagan shaxsga telefon qilish imkoniyati yaratib beriladi. Bu jarayon yakunlangandan so'ng politsiya gumon qilinuvchini garov evaziga yoki yozma ravishdagi dastlabki tergov olib borayotgan mansabdor shaxs yoki sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lish haqidagi tilxatni olib ozod qilishi, gumon qilinuvchini hibsda saqlashni davom ettirish asoslari (agarda yashirinishi, odil sudlovga qarshilik qilishi, atrofdagilarga xavf tug'dirishi mumkin degan asoslar) bo'lganda – kameraga joylashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, Amerika jinoyat protsessida (masalan, 1964-yildagi «Uniform Arrest Act New-York»ning 180a-moddasida) «Terri tipi»ga¹ taalluqli ushlab turish tartibga solingan bo'lib, u qonun bilan tartibga solinmagan va bizdagi gumon qilinuvchini ushslash institutiga juda o'xshash. Bunday tartibga solishning mohiyati quyidagilardan iborat:

- politsiya xodimi jinoyat sodir qilganlikda gumon qilinayotgan har qanday shaxsni oqilona asoslarga ko'ra to'xtatib, undan o'z ismi-sharifini, yashash manzilini aytishini, shuningdek bu yerda nima maqsadda yurgani va qayerga ketayotganligini ma'lum qilishini talab qilish huquqiga ega;

- agar shaxs bu ma'lumotlarni bayon qilishdan bosh tortsa, bu ma'lumotlarni keyinchalik aniqlashtirish maqsadida shaxs politsiya xodimi tomonidan ushlab turilishi mumkin. Bunday ushlab turishning davomiyligi ikki soatdan oshmasligi lozim. Bu muddat tugaganidan so'ng ushlab turilgan shaxs yo ozod etiladi, yo qanday jinoyat sodir etishda ayblanayotganligi bildirilib, belgilangan tartibda qamoqqa olinadi.

Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish faoliyati ham gumon qilinuvchining huquqlariga rioya etish jihatidan qat'iy tartibga solingan. Bu bejiz emas, chunki «uning natijalari sud muhokamasi jarayonida 100

¹ Izoh: ushlab turish AQSH Oliy sudining 1968-yilda Terri ishi bo'yicha hal qiluv qaroridan so'ng shunday nomni olgan.

foizlik samara beradi»¹. Umume'tirof etilgan qoidaga asosan tanib olish faqat tanib olinuvchining himoyachisi ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilganlardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- turli mamlakatlar (ham roman-german, ham anglo-sakson huquq tizimiga mansub) jinoyat-protsessual qonunchiligidagi guman qilinuvchining (u qanday termin bilan nomlanishidan qat'i nazar) jinoyat sud ish yurituvida ishtirokini tartibga soladigan normalar yig'indisi mavjud;

- anglo-sakson huquq tizimiga mansub mamlakatlar jinoyat protsessida guman qilinuvchi va ayblanuvchini ishtiroki tergov organining insonning eng asosiy va umume'tirof etilgan huquq va erkinliklariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lган majburiy tavsifga ega (hibsga olish, tintuv va hokazo) xatti-harakatlariiga nisbatan mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi;

- xorijiy davlatlar jinoyat protsessida shaxsga jinoiy ta'qib qilinayotgan subyekt protsessual maqomining berilishi muayyan yuridik faktlar (ushlab turilishi, qaror chiqarilishi va hokazo) bilan qat'iy bog'langan emas, balki turli tuman, shu jumladan tergov (ya'ni, dalillarni aniqlashga yo'naltirilgan) va protsessual harakatlarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

¹ Qarang: Гуценко К.Ф. Основы уголовного процесса СИА. – М., 1993. – С. 45.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI HUQUQLARINI CHEKLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat va hokimiyatning chegaralarini belgilaydigan vosita sifatida fuqarolar, davlat organlari, mansabdor shaxslar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa huquq subyektlari tomonidan ijro qilinishi shart bo‘lgan majburiyatlar, burchlar va taqiqqlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shundan kelib chiqqan holda, umumiy va xususiy sifatda nisbatlanadigan konstitutsiyaviy cheklov va konstitutsiyaviy huquqlarning cheklanishini ajratish maqsadga muvofiq. Konstitutsiyaviy cheklovlarning ijtimoiy asosi bo‘lib, jamiyatning shaxslardan, ijtimoiy guruhlardan tashkil topishi xizmat qiladi. Inson alohida mustaqil shaxs sifatidagina emas, balki jamiyat a’zosi tariqasida ham namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida jamiyat ham bir necha shaxslarning yig‘indisi yoki yagona tuzilishga ega guruh emas. U o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, unda har bir shaxs alohida qadrlanadi hamda shaxsiy (xususiy, yakka) va umumiy (jamoat, ijtimoiy) o‘zaro mutanosiblikka ega bo‘lishi lozim.

Bunda asosiy huquqlarni faqat xususiy, majburiyatlarni esa umumiy manfaatlarning namoyon bo‘lishi sifatida qabul qilish kerak emas. Asosiy huquqlar muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Majburiyatlar esa shaxsning xususiy manfaatlarini ta’minlash uchun zarurdir.

Asosiy huquqlarni ro‘yobga chiqarishda turli (huquq subyektlari, boshqa shaxslar, jamiyat) manfaatlar to‘qnash keladi. Shundan kelib chiqqan holda asosiy huquqlarning chegaralarini belgilash, ularni ro‘yobga chiqarilishi sharoitlarini hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar qarama-qarshiligini hal etish tartibini aniqlashtirish bir tomonidan jamiyatning normal faoliyati uchun talab qilinsa, ikkinchi tomonidan shaxs erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Aynan shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi qonun chiqaruvchi, uni ijro etuvchi organlarga huquq va erkinliklar sohiblariga nisbatan ularning manfaati nisbatini belgilovchi mezon sifatida xizmat qiladi, ya’ni «Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini

amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklari putur yetkazmasliklari shart»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun yagona bo‘lgan prinsip – shaxsning huquq va erkinliklari daxlsizdir va ular sud qarorisiz cheklanishi yoki mahrum etilishi mumkin emasligi qoidasini o‘zida aks ettirgan.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasining huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyati yanada dolzarblashib bormoqda. O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-y.), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi (yakunlovchi hujjat) (1975-y.), Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-y.) kabi bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qildi va shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish, davlat tomonidan insonning hayoti, sog‘lig‘i, huquq va erkinliklarini muhofaza qilish bo‘yicha yuqoridagi xalqaro hujjatlarda aks etgan asosiy g‘oyalarga amal qilish vazifasini zimmasiga oldi. Chunki faqat huquqiy demokratik davlat shaxsning erkinligini asl ma’noda ta’minlash va uning mukammal rivojlanishiga zamin yaratishga qodir.

Shaxsning daxlsizligi – umumhuquqiy institut bo‘lib, u davlat va huquq asoslari nuqtai nazaridan ham o‘rganiladi. Bu institutga, odatda, shaxsning jismoniy, ruhiy, axloqiy va psixik daxlsizligi, qisman uning shaxsiy erkinligi va xavfsizligi ham taalluqli hisoblanadi. Huquq sohalarida bu institut o‘ziga xos o‘ringa ega.

Shaxs erkinligi – insonga berilgan va o‘z qarashlari, xohishlari va tasavvurlari doirasida fikrlash, harakat qilish, o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatidir.

Kundalik hayotda shaxs erkinligi birovning xohishiga, majburloviga bog‘liq bo‘lmasdan o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zini tutish, iroda qilish tushuniladi. Ammo tashqi ko‘rinishidan erkin bo‘lgan harakat har doim ham «erkinlik»ni ifoda etavermaydi. Inson tom ma’noda emas, nisbatan erkindir. Shaxsning ongi va xatti-harakati, hayot tarzi, ijtimoiy muhit, tashqi ta’sirlar shuningdek insonni biologik borliq sifatidagi tabiiy xususiyatlariga bog‘liq. Shaxsning ichki va tashqi xatti-harakatlari

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2012. – Б. 6.

orasidagi bog‘liqlik mutlaq emas – u tanlash imkoniyatini, ya’ni shaxs o‘z nuqtai nazaridan ma’qul bo‘lgan harakat turini tanlashi mumkin.

Jamiyatda shaxs erkinligi uning o‘zligini anglashga yetarli darajada belgilanishi lozim. Chunki jamiyat, davlat va boshqa fuqarolarning manfaatlariga ziyon keltiradigan «huquq»lar cheklanishi lozim. Shaxsning huquqlari va jamiyat oldidagi majburiyatlarining o‘zaro munosabati O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 5-bobida tartibga solingan. Unda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq va erkinliklari o‘z aksini topgan, shu bilan birga fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shartligi alohida belgilab qo‘yilgan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishni ularning burchlarini bajarishlaridan ajratilgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Inson tomonidan huquqiy majburiyatlarning tan olinishi va bajarilishi shaxs erkinligining huquqiy belgisidir va bu majburiyatlarni bajarishda majburlov talab qilinmaydi.

Erkinlik – insonning uch asosiy ijtimoiy mavqeい, ya’ni mehnatkash, ijtimoiy-siyosiy arbob va shaxs sifatida namoyon qilishining yagona yo‘lidir¹.

Jamiyat va shaxsning erkinligi quyidagi sohalarda namoyon bo‘лади:

- 1) ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni mukammallashtirish (ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik);
- 2) fuqaro, jamoat birlashmalari va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda, ya’ni jamiyatni boshqarishda ishtirok etish (siyosiy erkinlik);
- 3) ilm-fan, san’at va madaniyatning erkin rivojlanishi (ma’naviy erkinlik);
- 4) jamiyatning axloqiy boyliklarini mustahkamlash va rivojlantirish (axloqiy erkinlik);
- 5) vakolat beruvchi, majburlovchi va taqiqlovchi huquqiy normalarni joriy qilish va ularga amal qilish (huquqiy erkinlik)².

Bizni avvalambor huquqiy erkinlik qiziqtiradi, bu ijtimoiy tan olingan xatti-harakatlarni bajarishda vakolat beruvchi, majburlovchi va taqiqlovchi huquqiy normalar bilan belgilanadi.

¹ Патюлин В.А. Государство и личность. – М., 1974. – С. 135.

² Erkinlikning boshqacha tasniflari ham mavjud, qarang: Голубенко В.П. Необходимость и свобода. – М., 1974. – С. 151.; Никонов К.М. Свобода и ее содержание. – Волгоград, 1972. – С. 45.; Логанов И.И. Свобода личности. – М., 1980. – С. 101.

Nafaqat huquqiy vakolat, balki majburlov va taqiq shaxsning huquqiy erkinligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi. Qonun mansabdor shaxslarga ma’lum vakolatlar berish bilan birga ularning faoliyatini fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga yo‘naltiradi. Bu esa fuqarolarning yakka holda o‘z huquqlari uchun kurashishidan ozod qiladi. Huquqiy taqiq qonunga xilof harakat «erkinligini» cheklaydi, lekin shu bilan birga qonun talablarini sidqidildan bajarayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklari muhofazasini kafolatlaydi. Inson o‘z burchlarini tabiiy ehtiyoj sifatida hamda jamiyat va boshqa fuqarolar oldidagi «qarzi» sifatida tan oladigan jamiyatda burchlar erkinlikning cheklovi sifatida tan olinishi mumkin emas¹.

Jamiyat manfaatlari yo‘lida shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini cheklovchi davlatning bir qator faoliyat sohalari mavjud. Bu jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq jinoiy-protsessual, jinoiy-huquqiy va jinoiy-ijroiya huquqi sohalarini qamrab oladi. Ayniqsa, jinoiy-protsessual huquqi sohasida shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini cheklash chegaralarini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki huquqning bu sohasida hali sud tomonidan aybdor deb topilmagan shaxslar bilan munosabatlarga kirishiladi va jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash masalasi yuzaga keladi. Ushlab turish va qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash jarayonida hali sud tomonidan aybdor deb topilmagan fuqarolarning shaxsiy erkinligi cheklanadi. Ayblanuvchini lavozimidan chetlatishda esa mehnat qilish, xususan erkin ish joyi va kasb tanlash huquqi cheklanadi. Ayblanuvchining mulki xatlanganda esa uning mulkka egalik qilish huquqi cheklanadi. Uni tibbiy muassasaga joylashtirish uning shaxsiy erkinligini cheklashni bildiradi. Jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plash maqsadida qonun shaxsning boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini: tintuv va olib qo‘yish (uy-joy daxlsizligi), pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash, ularni ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish (yozishma va xat-xabarlarning sir tutilishi, shaxsiy hayot daxlsizligi), guvohlantirish va ekspertiza jarayonida shaxsni yalang‘ochlab uning badanini ko‘zdan kechirish, shaxsiy tintuv va ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olish (shaxsiy daxlsizlik) tergov harakatlarini o‘tkazish jarayonida ham cheklashga yo‘l qo‘yadi.

Jinoyat protsessida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va boshqa ishtirokchilarning qonuniy manfaatlari hamda aybdorlarni fosh qilish va

¹ Воеводин Л.Д., Краснов М.А. О формах конституционного закрепления свободы личности // Государство и право. – 1982. – №4. – С. 9.

jazolash, aybsiz shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo‘l qo‘ymaslikda ifodalanadigan jamiyat manfaatlarining o‘zaro nisbati va munosabati haqida so‘z boradi. Davlat o‘zining huquqni muhofaza qiluvchi organlari orqali jinoyatni ochish, uni sodir etganlarni fosh etish maqsadida fuqarolar, jinoyatdan jabrlanganlar, guvohlar, ekspert va mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar va boshqa protsess ishtirokchilarining yordamiga, hamkorligiga asoslanadi. Yuqoridagi shaxslarning o‘z ijtimoiy burchlarini bajarishdan bo‘yin tovlashi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga to‘sinqilik qiladi, ayrim hollarda jinoyat ishlarini noto‘g‘ri hal qilinishiga olib keladi. Protsess ishtirokchilarining bunday harakatlari noqonuniy bo‘lib, protsessual, ayrim hollarda jinoiy-huquqiy sanksiyalarning qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Protsessual sanksiyalar qonunda protsess ishtirokchilarining o‘ziga yuklatilgan protsessual majburiyatlarini bajarishga majburlash uchun ifodalangan.

Agar muammoga kengroq nazar tashlanadigan bo‘lsa, jinoiy ish yuritvi jarayonida shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va shaxsiy xususiyatdagi asosiy huquq va erkinliklari cheklanishi mumkinligi haqida xulosaga kelish mumkin. Bu huquq va erkinliklar aksariyat hollarda tegishli protsess ishtirokchisining roziligi bilan yoki uning talabiga asosan cheklanishi mumkin. Majburlov – jinoyat protsessida shaxsning qarshiliklarini bostirish usuli va uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashning vositasi hisoblanadi. U asosan jinoyat sodir qilishda gumon qilinayotgan va ayblanayotgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda va ma’lum bir chegarada qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual huquqiga oid adabiyotlarda jinoiy ish yuritish jarayonida shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minalash muammosining muayyan jihatlari¹ o‘rganilgan bo‘lsa-da, siyosiy va ijtimoiy hamda fuqarolarning shaxsiy huquqlari masalasi, ularni cheklashning chegaralari to‘liq tadqiq etilmagan.

Agar shaxs harakatlari asosida anglangan ehtiyoj yotsa, u muayyan tarzda harakat qilishga majbur qilinadi deb bo‘lmaydi. Agar shaxs huquqning ijtimoiy funksiyasini tushunib va uni ma’qullasa o‘z harakatlarini huquq normalarini fahmlagan holda erkin boshqaradi. Bu normalarga amal qilishdan bosh tortgan subyekt faqat tashqi ko‘rinishidan erkinga o‘xshaydi. Lekin uning huquqqa xilof «erkinligi» davlat organlari

¹ Коврига З.Ф. Уголовно-процессуальное принуждение. – Воронеж, 1975. – 78 с.; Корнуков В.М. Меры процессуального принуждения в уголовном судопроизводстве. – Саратов, 1978. – 134 с.; Зинатулин З.З. Уголовно-процессуальное принуждение и его эффективность. – Казань, 1981. – 84 с.

tomonidan protsessual majburlov choralari vositasida to‘liq asoslangan holda bostiriladi.

Holatning o‘ziga xosligi shunda namoyon bo‘ladiki, huquq ba’zan shaxsning «erkin» (cheklangan) harakatlariga yo‘l qo‘yadi va ba’zan esa himoya qiladi hamda unga o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilish imkoniyatini beradi. Masalan, jabrlanuvchi guvohlantirish o‘tkazishdan yoki tibbiy muassasaga joylashtirishdan bosh tortdi va bu bilan jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sinqlik qildi. Bu bilan u ijtimoiy ziyon keltiradi va jinoyatchilikka qarshi kurashda ifodalangan ijtimoiy ehtiyojini e’tiborsiz qoldiradi yoki tushunib yetmaydi. Shunga qaramasdan, huquq jabrlanuvchini guvohlantirish yoki tibbiy muassasaga joylashtirishga majburlamaydi. Bu holatda jabrlanuvchi obyektiv jihatdan erkin, subyektiv jihatdan esa erkin emas, chunki u o‘z harakatlarini ijtimoiy ehtiyoj ekanligini tushunib yetmaydi. Xuddi shunday holatni ayblanuvchiga nisbatan ham aytishimiz mumkin, ya’ni qonun unga ko‘rsatuv berish yoki bermaslik, haqiqatni yoki yolg‘on ma’lumotlarni gapirish huquqini bergen. Bu holatda ayblanuvchi subyektiv jihatdan erkin. Lekin ko‘rsatuv berishdan bo‘yin tovlashda yoki yolg‘on ko‘rsatuv berishda ayblanuvchi obyektiv jihatdan erkin bo‘lmaydi, chunki uning harakatlari, u tushunib yetmagan, ijtimoiy ehtiyojga va oxir oqibat o‘zining manfaatlariga zid bo‘ladi. Nihoyat, voyaga yetmagan jabrlanuvchi va psixologik nuqsonlari bor ayblanuvchi esa erkin emas. Chunki ular uchun anglangan ehtiyoj ahamiyatsiz, ya’ni ular ijtimoiy xavfli qilmishlarga qarshi kurashning zarurligini va ularga berilgan huquqlarning ahamiyatini tushunib yeta olmaydilar. «Inson shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki ma’lum bir jarayonlar natijasida shakllanadi. Chaqaloq yoki ruhiy nosog‘lom kishi shaxs emas» – deb e’tirof etadi N. I. Matuzov¹. Lekin bu shaxslar boshqa jihatdan erkin. Ya’ni ularga nisbatan ham shaxsiy daxlsizlik, shaxsiy erkinlik, shaxs sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, shaxsiy hayotning sir tutilishi, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar sir tutilishi va boshqa huquq va erkinliklarning to‘liq amal qilishi qonunan kafolatlangan.

Shaxs jinoiy protsessual munosabatlarga kirishgani bilan birga uning jamiyatdagi erkinligini belgilovchi huquqiy, konstitutsiyaviy maqomi o‘zgarmaydi. Balki u qo‘sishimcha tarzda maxsus protsessual – ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tarjimon, xolis va boshqa maqomlarga ham ega bo‘ladi.

¹ Матузов Н.И. Личность. Права. Демократия: Теоретические проблемы субъективного права. – Саратов, 1972. – С. 69.

Jinoyat protsessida shaxsning protsessual maqomi umumiy yoki sohaviy maqomdan alohida ajratilmagan va protsessning har bir ishtirokchisi o‘ziga xos protsessual maqomga – ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvoh protsessual maqomiga ega. Garchi ularning ba’zi bir elementlari (xossalari) boshqa protsess ishtirokchilarining mavqelari uchun umumiy bo‘lsa-da (masalan: ayblanuvchi ham, jabrlanuvchi ham dastlabki tergov tamomlangandan so‘ng ish materiallari bilan tanishish huquqiga ega)¹. Protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlari ularning umumhuquqiy maqomini to‘ldiradi va rivojlantiradi. Misol uchun, ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqi bo‘lgan himoyalish huquqi jinoyat-protsessual qonuni bilan unga berilgan huquqlar qatorida aniq tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarga shaxsiy daxlsizlikni kafolatlaydi (25-modda) va shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyatini joriy qiladi (48-modda). Shubhasiz bu qoidalar barchaga nisbatan bir xil joriy qilinadi, ya’ni Konstitutsiya inson va shaxs tengligini tan oladi. Nafaqat voyaga yetgan va muomalaga layoqatli insonning, balki voyaga yetmagan yoki ruhiy nosog‘lom insonning ham shaxsi daxlsizdir. Barcha insonlar o‘zlarining sha’ni va qadr-qimmatiga, hayoti va sog‘lig‘iga, shaxsiy erkinligi va mol-mulkiga qilingan har qanday tajovuzlardan sud orqali himoyalish huquqiga egaligi² ham qonunan tartibga solingan. Xususan, voyaga yetgan yoki yetmagan, sog‘lom yoki ruhiy kasal bo‘lishidan qat’i nazar insonni kamsitish – bu jinoyatdir³.

Jinoyat protsessiga jalb qilingan har qanday insonni shaxs sifatida e’tirof etar ekanmiz, huquq nazariyasidagi munozaraga sabab bo‘layotgan «inson huquqi» va «fuqaro huquqi» tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga e’tibor qaratmasdan ilojimiz yo‘q. Har qanday shaxs muayyan davlatning fuqarosi bo‘lmashligi mumkin (masalan, fuqaroligi bo‘lmasliq shaxslar). Bunda shuni ta’kidlash joizki, jinoyat-protsessual qonun yuqorida aytib o‘tilgan shaxslarga nisbatan hech qanday kamsitish

¹ Izoh: V.M. Kornukov jinoyat protsessida shaxs huquqiy maqomining yagona modelini yaratishga urinib ko‘rgan. Qarang: Корнуков В.М. Правовой статус личности в уголовном судопроизводстве // Проблемы правового статуса личности в уголовном процессе/Под ред. В.Я. Чеканова. – Саратов, 1981. – С. 40.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2012. – В.10.

³ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013. – В.58–83.

va cheklovlarga yo‘l qo‘ymaydi va ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xilda protsessual huquqlardan foydalanadilar¹.

Biroq muammoning asl mohiyati bunda emas. Ayrim mualliflarning ta’kidlashlaricha, «inson huquqi» huquqiy kategoriya emas, balki ijtimoiy kategoriyadir. Ular «inson huquqi» – jamiyatda belgilangan hayot tarzidan kelib chiqadigan asosiy ijtimoiy imkoniyatlar yig‘indisidir. Huquq bu imkoniyatlarni vujudga keltirmaydi, balki faqatgina ularni qayd qiladi. Inson Konstitutsiyada huquq sifatida mustahkamlab qo‘yilganligi sababli mehnat qilmaydi yoki dam olmaydi, balki jamiyat bu ijtimoiy imkoniyatlarni amalga oshirilishini ta’minlaydi. «inson huquqi» qonunda mustahkamlab qo‘yilgandan keyin «fuqaro huquqi»ga aylanadi², deb fikr yuritadilar.

Boshqa guruh mualliflar esa «huquq – yuridik tushuncha, shuning uchun har qanday ijtimoiy imkoniyat qonunda o‘z aksini topganidan so‘ng huquqqa aylanadi» – deb e’tirof etadilar³.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jinoiy sud ish yurituvi jarayonida shaxsning umumhuquqiy maqomi qay darajada ta’milanadi? Ijtimoiy munosabatlarning bu maxsus sohasida shaxs erkinligining o‘rni qanday? degan savollarning tug‘ilishi tabiiy.

Fikrimizcha, shaxsning umumhuquqiy maqomi bu – insonning asosiy huquq va erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari yig‘indisidir. Huquq shaxsning jamiyatdagi erkinligi me’yorini belgilaydi, burch esa bu erkinlik chegarasini ko‘rsatib beradi va shaxsga ijtimoiy mas’uliyat yuklaydi. Qonuniy manfaat hamma vaqt ham shaxs huquqlarida namoyon bo‘lmaydi, biroq u davlat muhofazasida bo‘ladi⁴.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т., 2013. – В. 5.

² Фарбер И.Е. Свобода и права человека. – Саратов, 1974. – С. 38–39.; Кучинский В.А. Личность. Свобода. Право. – М., 1978. – С. 34.; Маленин Н.С. Гражданский закон и права личности. – М., 1981. – С. 17.

³ Патюлин В.А. Государство и личность. – М., 1974, – С. 192–193.; Матузов Н.И. Права. Демократия: Теоретические проблемы субъективного права. – Саратов, 1972. – С. 85.; Мальцев Г.В. Право и свобода личности. – М., 1968. – С. 74–80.; Витрук Н.В. Основы теории правового положения личности в обществе. – М., 1979. – С. 125.

⁴ Витрук Н.В. Основы теории правового положения личности в обществе. – М., 1979. – С. 29.; Патюлин В.А. Государство и личность. – М., 1974. – С. 201–203.; Мальцев Г.В. Право и свобода личности. – М., 1968. – С. 82.

Shaxsning umumhuquqiy maqomiga huquqiy erkinlikni ham kiritish lozim. Har qanday bunday erkinlik subyektiv huquq sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

M. S. Strogovichning ta’kidlashicha, «Shaxsning erkinligi – bu ham uning huquqidir», boshqa tarafdan esa «Shaxsning har qanday huquqi o‘zida ma’lum bir harakatlanish erkinligini aks ettiradi»¹. N. I. Matuzovning yozishicha, «...Qonun chiqaruvchi erkinlik berishni xohlasa, u huquq taqdim qiladi. Aslini olganda erkinlik yuridik jihatdan subyektiv huquqni anglatadi yoki o‘z navbatida subyektiv huquq huquqiy kafolatlangan erkinlikdir»². Haqiqatan ham har bir subyektiv huquq – erkinlik turidir. Jinoyat protsessi sohasida shaxs erkinligining me’yori unga tegishli bo‘lgan konstitutsiyaviy va protsessual huquqlarning yig‘indisi bilan belgilanadi. Misol uchun, ayblanuvchining himoyalanish huquqi – bu qonun bilan kafolatlangan ayblovni rad qilish erkinligidir, ishlarni oshkora yuritilishi – bu fuqarolarning sud zaliga erkin kira olishi, sudyalarning mustaqilligi – bu ularning tashqi ta’sirlardan xoli, erkin ekanligi va boshqalar.

L. D. Voyevodin va M. A. Krasnovlar, V. A. Patyulin fikrini rivojlantirib, huquq – bu har qanday ijtimoiy boylikka erishish imkoniyati, erkinlikni esa – u yoki bu harakatni sodir qilish (amalga oshirish) imkoniyati sifatida talqin qilib, «har bir konstitutsiyaviy erkinlik bir vaqtning o‘zida shaxsning huquqidir» deb e’tirof etadilar³. «Subyektiv huquq» tushunchasida birinchi navbatga o‘zini o‘z xohishiga ko‘ra tutish imkoniyati chiqsa, «erkinlik» tushunchasida e’tibor bu xohishni tashqi shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lmasligiga qaratiladi. Erkinlik keng ma’noda – bu siyosiy rejimning xususiyatidir.

Yuqorida biz jinoyatlarni ochish va aybdorlarni jazolash maqsadida shaxsning huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan chekshanishi mumkinligini ta’kidlab o‘tdik. Biroq bu xususda boshqacha nuqtai nazarlar ham mavjud. Shaxsiy daxlsizlik huquqini nazarda tutib, V. A. Patyulin huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining qonuniy harakatlari natijasida chekshanishi mumkin emas deb hisoblaydi. V. A. Patyulinning fikricha, bu holatda daxlsizlik huquqi chekshanmaydi, balki daxlsizlikning o‘zi faktik holat sifatida

¹ Сторогович М.С. Общие положения теории прав личности в обществе // Права личности в обществе. – М., 1982. – С. 24.

² Матузов Н.И. Права. Демократия: Теоретические проблемы субъективного права. – Саратов, 1972. – С. 205.

³ Воеводин Л.Д., Краснов М.А. О формах конституционного закрепления свободы личности // Государство и право. – 1982. – №4. – С. 8–9.

cheklanadi¹. Boshqa bir qator olimlarning fikriga ko‘ra, yuqoridagi fikrga qo‘shilmasdan qonuniy asoslarga ko‘ra shaxsning konstitutsiyaviy daxlsizlik huquqi ham chekhanishi mumkin (misol uchun, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishning qo‘llanilishi)².

O‘z-o‘zidan qonuniy asoslarga ko‘ra nafaqat shaxsiy daxlsizlik huquqi, balki shaxsning boshqa konstitutsiyaviy huquqlari chekhanishi mumkinmi?, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga ijobiy javob berish lozim. Chunki har qanday subyektiv huquq – bu ma’lum ijtimoiy yaxshilik, baxt-saodatga erishish imkoniyatining kafolatidir. Agar inson qandaydir muddatga bu yaxshiliklarga erishish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, uning subyektiv huquqi chekhanadi. Misol uchun oladigan bo‘lsak, insonning o‘zini ixtiyoriga ko‘ra boshqarish, erkin harakatlanish va erkin yashash joyini tanlash huquqi mavjud. Ushlab turish yoki ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash guman qilinuvchi (ayblanuvchini) bu imkoniyatlardan ma’lum muddatga mahrum qiladi, ya’ni bu munosabatlarda uning subyektiv huquqlari chekhanadi. Jinoyat protsessida insonning subyektiv huquqlarining qonuniy chekhanish holatlari yetarlicha.

Endi biz shaxsning umumhuquqiy maqomini (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy huquqlar) asos sifatida olib va qonuniy asoslarga ko‘ra protsessual majburlov choralarini qo‘llashda u qanday chekhanishini kuzatgan holda jinoyat protsessi sohasida inson huquqlarini cheklashning chegarasini umumiyligi miqyosda belgilab olishimiz mumkin. Bu yerda muammoning, ya’ni erkinlik chegarasining umumiyligi jihatlari haqida so‘z boradi.

Adabiyotlarda insonning shaxsiy erkinlik huquqini yuzaga keltiruvchi (tashkil qiluvchi) qonuniy vakolatlar (huquqlar) tizimi haqida turli xil qarashlar mavjud³. Bu ish yuzasidan bildirilgan barcha fikrlarni batafsil tahlil qilish imkoniyati yo‘q.

¹ Патюлин В.А. Государство и личность. – М., 1974. – С. 66–68.; Патюлин В.А. Неприкосновенность личности как правовой институт // Государство и право. – 1973. – № 11. – С. 15.

² Фарбер И.Е. Свобода и права человека. – Саратов, 1974. – С. 161–162.

³ Горшенев А. П. Личные конституционные права граждан: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 1972. – С. 5–6.; Фарбер И.Е. Свобода и права человека. – Саратов, 1974. – С. 147.; Патюлин В.А. Государство и личность. – М., 1974. – С. 160.; Малеин Н. С. Охрана личных прав граждан // Социалистическое право и научно-технический прогресс / Под ред. Р. О. Халфиной. – М., 1979. – С. 274.; Малеин Н. С. Об охране прав личности // Проблемы управления и гражданского права. – М., 1976. – С. 89.

Fikrimizcha, insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini ikkita katta sohaga – shaxsiy daxlsizlik instituti (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 25-m.) va insonning shaxsiy hayot daxlsizligi institutlariga (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 27-m.) ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi deganda har qanday shaxs yoki fuqaroning erkinligini va shaxsiy xavfsizligini davlat tomonidan kafolatlanganligini tushunishimiz lozim. Bu kafolat insonning hayoti, sog‘lig‘i, badanining (tanasining) daxlsizligi va jinsiy erkinligi (shaxsning jismoniy daxlsizligi); sha’ni, qadr-qimmati, ma’naviy erkinligi (axloqiy daxlsizligi)¹, ruhiy daxlsizligi; o‘zini idora qilish va o‘z xohishiga ko‘ra yashash joyini tanlash imkoniyatida ifodalangan insonning shaxsiy erkinligi (shaxsiy xavfsizligi)ga nisbatan tajovuzlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olish va tajovuzlarni jazoga muqarrarligini ta’minlashda ifodalanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklarning ikkinchi keng sohasi – bu insonning shaxsiy hayot daxlsizligidir.

Shaxsiy hayot – bu insonning oilaviy, maishiy, jinsiy munosabatlarda davlat, jamoat birlashmalari, boshqa shaxslarning bevosita nazoratisiz harakat qilishidir; bu yolg‘iz qolish, fikr yuritish, yozishmalar olib borish, kundalik va boshqa yozuvlarni yuritish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish, xizmat munosabatlariga bog‘liq bo‘lmagan fikrlarni bildirish va harakat qilish erkinligidir; bu insonning shaxsiy sirlari aniqlanmasligi va oshkor qilinmasligiga asoslangan holda imoni komil bo‘lish (ishonish) holatidir².

Jinoiy ish yurituv sohasida shaxsiy hayot huquqi jiddiy sinovlarga duch keladi, chunki u sohada jinoyatni ochish maqsadida protsessual majburlov choralar qo‘llanishi mumkin.

Shaxsiy hayot huquqi va uy-joy daxlsizligi huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida qayd etilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning ushbu moddasida «shaxsiy hayot» va «yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilinmaslik» tushunchalari teng kuchli

¹ Воеводин Л.Д., Краснов М.А. О формах конституционного закрепления свободы личности // Государство и право. – 2002. – №4. – С. 9.; Байтун М.И. О современном нормативном понимании права // Рос. право. – 1999. – № 1. – С. 103.; Миразов Д.М. Проблемы совершенствования проверки показаний на месте события по уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан: Автореф. дис. ... кан. юрид. наук. – Т., 2004. – С. 18–19.

² Рудинский Ф. М. Теоретические проблемы личных конституционных прав и свобод советских граждан – М., 1987. – С. 21.

mazmunda ifodalangan. Biroq ko'rsatib o'tilgan tushunchalarning nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, «shaxsiy hayot» – asosiy tushunchadir, «uy-joy daxlsizligi» va «yozishmalarning sir saqlanishi» – asosiy tushunchaning qismlari bo'lgan qo'shimcha tushunchalardir. Shaxsiy hayotning davlat muhofazasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida kafolatlangan oila va nikoh sohasidagi munosabatlar bilan ham uzviy bog'liq.

Shaxsiy hayot daxlsizligi – bu yolg'iz qolish (bo'lish) erkinligi; muloqot qilish erkinligi; yozishmalar, telegraf jo'natmalari va telefon so'zlashuvlarining sir saqlanishi, kundalik yuritish va shaxsiy yozuvlarning sir saqlanishi; jinsiy va umuman shaxsiy hayotning sir saqlanishi; shifokorlik siri; farzandlikka olish siridir.

«Shaxsiy hayot daxlsizligi» tushunchasini ham o'z ichiga olgan juda keng qamrovli «shaxs daxlsizligi» tushunchasini shakllantirishga yo'naltirilgan urinishlar bo'lgan¹. Bunday nazariy tuzilishga quyidagilar asos sifatida xizmat qiladi, ya'ni uy-joy daxlsizligi, yozishmalarning sir saqlanishi va boshqa inson shaxsiy hayotining ajralmas qismlarining buzilishida inson yashayotgan uy-joy, xat, telegramma va boshqalar zarar yetkazish obyekti hisoblanmaydi, balki o'ziga xos qarashlar, qiziqishlar, qadriyatlarga ega bo'lgan shaxsning o'zi obyekt hisoblanadi. Shunday qilib, shaxsga biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy obyekt sifatida qaraladi. Uy-joyiga noqonuniy kirish, jinsiy hayotidagi holatlarining oshkor etilishi bilan daxlsizligi buzilayotgan shaxs tushunchasiga bunday yondashuvning yuzaga kelishi tabiiy va u mavjud bo'lishga haqli. U barcha shaxsiy huquqlar ajralmas ekanligi bilan ham tan olingan. Agar bu yo'ldan boradigan bo'lsak, shaxs iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy huquqlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lsagina shaxsga ziyon yetkazilishini tan olishga majbur bo'lar edik. Biroq bu holatlarda biz shaxs daxlsizligi buzilgan deb ayta olmaymiz. Shunday qilib, shaxsning o'ziga (hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy erkinligiga) va shaxsiy hayotiga (muloqot qilish, yolg'iz bo'lish erkinligi, yozishmalarning sir saqlanishi, uy-joy daxlsizligiga) nisbatan tajovuzlarni ajratishimiz mumkin.

Nihoyat, na shaxsiy daxlsizlik huquqiga, na shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga kiruvchi ayrim shaxsiy huquq va erkinliklarning mustaqil

¹ Кареева М.П. Советское государство и право. – М., 1943. – С. 176–177.; Иваник Н. П. Неприкосновенность личности и некоторые вопросы уголовного права // Проблемы правового статуса личности в уголовном процессе/Под ред, В. Я. Чеканова и др. – Саратов, 1981. – С. 11.

(uchinchi) guruhini ajratishimiz lozim. Bu vijdon va e'tiqod erkinligi; sog'lom atrof-muhitga erishish (ega bo'lish) huquqi; mualliflik huquqi; o'z ko'rinishi, ovozga egalik huquqlari.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchi esa jazoga sazovorligini bila turib jinoyatni sodir etish vaqtida iroda erkinligini saqlaydi va shunday ekan ularga nisbatan protsessual xususiyatdagi majburlov choralarining qo'llanilishi o'zlarining erkin tanlagan ma'lum variantdagi xattiharakatlari natijasidir.

Jinoyat protsessining aksariyat ishtirokchilari (ayblanuvchi va gumon qilinuvchidan tashqari) jinoyat-protcessual huquq normalarini amalga oshirish zaruratiga qat'iy ishonadilar. Shuning uchun ularga nisbatan u yoki bu protsessual harakatni o'tkazishda (amalga oshirishda) shaxsning asosiy huquqlarini obyektiv cheklash zarurati yuzaga kelganida ham bu normalarning sanksiyasi odatda harakatsiz qoladi, majburlov qo'llanilmaydi.

Jinoyat protsessida protsessual majburiyat subyekti majburiyatni ko'ngilli (o'z xohishiga ko'ra) bajarishdan bo'yin tovlaganida va bu bilan ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga, ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga to'sqinlik qilgan vaziyatlarda (holatlarda) majburlov qo'llashga to'g'ri keladi.

Bir qarashda jinoyat protsessi davlat majburlovini keng ko'lamli va davomli qo'llash sohasiga o'xshaydi. Jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarga tintuv, olib qo'yish, guvohlantirish va jinoyatni sodir etgan shaxslar va jinoyat haqidagi ma'lumotlarni olishga yo'naltirilgan boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish jarayonida, ular uchun majburiy bo'lgan dalillarni olish talabi bilan murojaat qiladi.

Zaruriy hollarda ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish yoki boshqa ehtiyyot choralarini tanlash, lavozimdan chetlashtirish va boshqa ko'rinishdagi oldini olish choralar qo'llaniladi. O'z protsessual majburiyatlarini buzgan shaxslarga (tarjimon, xolis, guvoh) jarima qo'llaniladi. Ba'zi hollarda protsess ishtirokchilarining huquqlarini to'la ta'minlash maqsadida ham majburlov usullari qo'llaniladi (masalan: voyaga yetmagan yoki ruhiy kasal ayblanuvchining himoyachini rad etish talabi qondirilmaydi; protsess ishtirokchisi ish yuritilayotgan tilni to'liq bilmaydi degan xulosaga kelinsa, so'roq qilinayotgan shaxsning xohishiga qarshi tarjimon taklif qilinadi).

Jinoiy-protcessual huquqiy munosabatlarda majburiyatlarini amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida bu qadar keng majburlov qo'llash imkoniyatlarining mavjudligi bir qator olimlar tomonidan «jinoyat

protsessi asosan davlat majburlovidir»¹ degan tushunchani ilgari surishlariga sabab bo‘lgan.

Jinoiy-protsessual huquq normalarida aks etgan majburlov jinoyat protsessining barcha ishtirokchilariga yo‘naltirilmagan. Bu majburlov huquq, ya’ni uning tartibga soluvchi, taqiqlovchi va vakolat beruvchi funksiyalarini quvvatlamagan va shuning uchun o‘zining ijtimoiy burchini, protsessual majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarga qarshi yo‘naltirilgan. Guvohlar odatda, ularga majburiy keltirish yoki yolg‘on guvohlik berganligi va ko‘rsatuv berishdan bo‘yin tovlaganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari xavfi mavjudligi sababli emas, balki o‘z ijtimoiy burchlarini bajarish maqsadida dastlabki tergov va sudda hozir bo‘ladilar va ko‘rsatuv beradilar. Jabrlanuvchilar aksariyat hollarda sud-tibbiy ekspertizasiga yuborishni va guvohlantirish o‘tkazishni o‘zlar iltimos qiladilar. Bu holatlar yuzasidan majburlov haqida so‘z bo‘lishi ham mumkin emas.

Bir qator mualliflar gumon qilinuvchini ushlab turish muddatini 72 soatdan 48 yoki 24 soatga qisqartirish; ayb e’lon qilingunga qadar gumon qilinuvchini qamoqda saqlash muddatini yanada qisqartirish yoki bu institutni umuman chiqarib tashlash; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishning ko‘pi bilan 10 kunlik muddatini joriy qilish, ehtiyyot choralarini qo‘llashning qonuniyligi va asoslilagini nazorat qilishni sud organlariga o‘tkazish; jinoyat ishi sudda ko‘rilib tovlayotgan vaqtida qamoqda saqlashning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng ko‘p muddatini belgilash; jabrlanuvchi va guvohlarni majburiy guvohlantirish va ekspertizaga jalb qilishni taqiqlash va boshqa takliflarni protsessual majburlov sohasini chegaralash va ularni qo‘llashda qonuniylikni mustahkamlash kafolatlarini oshirish maqsadida ilgari suradilar. Bu takliflardan ular protsessual majburlovni qo‘llash sohasini cheklash, uning chegaralarini belgilash jinoyat protsessi rivojlanishining asosiy g‘oyalarini tashkil etadi degan xulosaga kelish mumkin. Bu esa jinoiy-protsessual majburlovni o‘rinli (tejamli) qo‘llash prinsipini tatbiq qilishdan kelib chiqishi lozim.

¹ Красавчикова Л.О. Личная жизнь граждан под охраной закона. – М., 1983.

– С. 12–20.; Сайдов А., Тожихонов У. Давлат ва хуқуқ назарияси. Т.2. – Т., 2001.
– В. 426.; Петрухин И.Л. Личная жизнь: пределы вмешательства. – М., 1989.
– С. 7.; Фозилов У.Э. Инсон хуқуқ ва эркинликлари кафолатининг хуқуқий механизмини оптималлаштириш хусусида фикрлар // Хуқуқ–Право–Law.
– 2003. – №4. – В. 90–92.

Jinoyat protsessida protsessual majburlov choralariga bir qator tergov harakatlarini – olib qo‘yish, tintuv, guvohlantirish, ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalar olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va boshqalarni obyektiv ravishda majburlov tavsifiga ega bo‘lganligi sababli to‘liq taalluqli deb hisoblanadi¹. Haqiqatan ham, bu protsessual harakatlar shaxsning huquq va erkinliklarini (shaxsiy daxlsizlik, pochta va telegraf jo‘natmalarining sir tutilishi, uy-joy daxlsizligi, shaxsiy hayot huquqi va boshqalarni) cheklash bilan bog‘liq.

Muayyan hollarda esa, masalan, buyumning noqonuniy egallanganligini bilmasdan xarid qilgan shaxsning bu buyumni o‘z ixtiyori bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilishi, guvoh va jabrlanuvchilarining o‘z ixtiyori bilan va ongli ravishda nafaqat guvohlantirish va ekspertiza o‘tkazish jarayonida, balki ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalar olish (barmoq izlari, qon namunalarini olish va boshqalar), jinoyat natijasida yuzaga kelgan asoratlarni tekshirishda o‘z ixtiyoriga ko‘ra ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, ba’zan ushlab turish va ehtiyyot chorasi gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan majburlov chorasi bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda so‘z, xususan aybini bo‘yniga olish haqida bormoqda, ya’ni shaxs qamoqqa olinishini oldindan bilsada bunga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi.

Shunday qilib, protsessual majburiyatlarga ega shaxs jalb qilingan aynan bir protsessual harakat ushbu subyektning xohish va manfaatlariga mos keluvchi chora sifatida yoki protsessual majburlov sifatida ko‘rilishi lozim va shart. Biroq bu protsessual majburlov choralarini qonunda ko‘rsatilgan tergov harakatlari degani emas. Protsessual majburlovni erkin harakat qilishdan ajratish mezoni – u yoki bu tergov yoki sud harakatining majburlov tavsifga egaligi, balki jinoyat protsessi ishtirokchisining unga yuklatilgan majburiyatni bajarishga ruhiy munosabatidan iboratdir. Fuqaro o‘ziga yuklatilgan majburiyatni ma’qllasa, uni o‘zining ijtimoiy burchi sifatida tan olsa, bu yerda hech qanday majburlov yo‘q. Agar u bu majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlasa, unda o‘zi uchun majburan

¹ Корнуков В. М. Меры процессуального принуждения в уголовном судопроизводстве. – Саратов, 1978. – С. 8, 9, 17–18; Митрохин Н. П. Законность и демократизм предварительного следствия. – Минск, 1979. – С. 54.; Либус И. А. Охрана прав личности в уголовном процессе. – Ташкент, 1972. – С. 12.; Ковалев М. А. Прокурорский надзор за обеспечением законности при расследовании преступлений. – М., 1981. – С. 118.; Зинатулин З. З. Уголовно-процессуальное принуждение и его эффективность. – Казань, 1981. – С. 7.

bo‘yniga yuklatilayotgan narsani ko‘rsa, majburiyatlarni psixologik yoki jismoniy tazyiq ostida bajarsa, bu yerda albatta majburlov mavjud. I. I. Loganov shu munosabat bilan «Psixologik motivlar tizimidan kelib chiqqan holda aynan bir harakatning o‘zi erkinlik yoki zaruriyat sifatida tushunilishi mumkin» degan to‘g‘ri fikrni bildirib o‘tgan¹. Erkinlik va majburlovni chegaralashda psixologik mezonlarning joriy qilinishi, asos sifatida alohida subyektiv tavsifga ega narsa olinishini anglatmaydi. Psixologiya fan sifatida shaxs (subyekt)ning protsessual majburiyatlarga nisbatan ichki munosabati qanday degan savolga ishonarli javob bera oladi. Bunday bilimlar obyektiv mazmunga ega.

V. M. Kornukov, yuqoridagi fikr muallifi bilan ilmiy munozaraga kirishib, shuni ta’kidlaydiki, majburlovga o‘z xohishi bilan bo‘ysunish tintuv, olib qo‘yish, guvohlantirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi bir qator obyektiv jihatdan inson huquqlarini cheklovchi tergov harakatlarini o‘tkazishda mavjud majburlovni yo‘q qilmaydi².

Bu borada P. S. Elkindning quyidagi fikri qiziqish uyg‘otadi: «U yoki bu protsess ishtirokchisi jinoiy-protsessual norma talablarini majburlov sifatida qabul qilmasligi bu normaning majburlov tavsifini inkor qilmaydi»³. Axir qanday qilib? Protsess ishtirokchisi huquq normasi bilan hamfikr, ularni majburlov hisoblamaydi, o‘z majburiyatlarini sidqidildan bajaradi, lekin protsessual majburlov baribir mavjud. Bu vaziyatda ba’zi tergov harakatlarida mavjud majburlov qo‘llash lozimligi va mumkinligi aralashib ketadi⁴.

Protsessual majburlov huquq normasi sanksiyasi yoki protsess ishtirokchisining huquqqa xilof harakatlarni sodir qilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qo‘llaniladigan oldini olish chorasi sifatida tan olinsa, dalillarni to‘plashda amalga oshiriladigan bir qator tergov va sud harakatlarini protsessual majburlov choralarini bilan tenglashtirish noto‘g‘ridir. Chunki bu harakatlarning har biri jinoyat-protsessual huquqi institutini tartibga soluvchi normalar yig‘indisini anglatadi.

Protsessual majburlov qo‘llaniladigan ko‘lamni aniqlash uchun majburlov tavsifiga ega bo‘lgan tergov va sud harakatlarini keltirib o‘tish

¹ Логанов И. М. Свобода личности. – М., 1980. – С. 103.

² Корнуков В. М. Меры процессуального принуждения в уголовном судопроизводстве. – Саратов, 1978. – С. 17–18.

³ Элькинд П. С. Сущность уголовно-процессуального права. – Л., 1963. – С. 81–82.

⁴ Ветрова Г. Н. Уголовно-процессуальная ответственность: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1981. – С. 4–5.

yeterli emas. Protsess ishtirokchilariga nisbatan qanchalik majburlov qo'llashga to'g'ri kelayotganligini aniqlash uchun ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish lozim. Tergov va sud amaliyotini o'rganish natijasida protsessual harakatlarni ularda majburlov qo'llanilishi darajasiga ko'ra guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1) protsess ishtirokchisining iltimosiga ko'ra o'tkaziladigan harakatlar, shuning uchun ularga nisbatan majburlov kamdan-kam qo'llaniladi (masalan, jabrlanuvchini guvohlantirish va ekspertiza o'tkazish);

2) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusi bilan, lekin protsess ishtirokchisining to'la roziligi bilan o'tkaziladigan harakatlar, ular kam hollarda majburlov tavsifiga ega (masalan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, eksgumatsiya);

3) huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki protsess ishtirokchisining tashabbusiga ko'ra o'tkaziladigan harakat, kimning tashabbusiga ko'ra o'tkazilishidan qat'i nazar yo majburiy yo ko'ngilli bo'lishi mumkin (masalan, ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish, ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olish);

4) majburiy harakatlar (masalan, ushlab turish ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash, lavozimdan chetlatish, mol-mulkni xatlash, majburiy keltirish);

5) qo'llanilgan choraga nisbatan protsess ishtirokchisi o'z munosabatini bildirish imkoniyati mavjud bo'limgan harakatlar, agar protsess ishtirokchilari qo'llanilgan chora haqida xabar topsalar, ular bu harakatlarni majburiy ravishda shaxsiy erkinligini cheklash sifatida qabul qiladilar (masalan, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash).

«Protsessual majburlov» tushunchasi protsessning har qanday ishtirokchisiga nisbatan bo'ladigan ta'sirning barcha turlarini qamrab oladi. Bunday ta'sir natijasida shaxs o'z xohishiga qarshi protsessual majburiyatlni bajarishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, protsess ishtirokchisiga nisbatan ta'sir choralarini nafaqat *protsessual* (majburiy keltirish yoki har qanday protsessual majburiyatni bajarishga majburlash xavfi), balki *jinoiy-huquqiy* (masalan, guvoh va jabrlanuvchini ko'rsatuv berishdan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi xavfi), *intizomiy* (masalan, ekspertni tergov yoki sudda hozir bo'lish va xulosa berishdan bosh tortganligi uchun intizomiy jazolanishi mumkinligi xavfi), *fugaroviy-huquqiy* (masalan, uzsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi sababli sud muhokamasi qoldirilganligi uchun protsess ishtirokchisidan sud chiqimlarini undirilishi xavfi) va *jamoat* (masalan, o'z vazifalariga

sidqidildan yondashmagan himoyachini advokatlar hay'ati umumiy yig'ilishida izza qilish xavfi) ta'sir choralaridan iborat bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, protsess ishtirokchisi zimmasidagi protsessual majburiyatlarni bajarishi maqsadida qo'llaniladigan majburlov jinoyat protsessining o'ziga xos vositalari chegarasidan ancha chetga chiqadi. Bu vositalar huquq-tartibotni muhofaza qilishda nafaqat huquqiy choralar, shuningdek jamoat, ruhiy, jismoniy, moddiy ta'sir choralarini ham o'zida mujassamlashtiradi¹. Majburlov choralar bosqichma-bosqich qo'llanilishi mumkin (ruhiy majburlov qo'llanilgandan so'ng bu choralar yetarli emas deb hisoblansa, jismoniy choralar qo'llaniladi). Mazkur choralar galmagal, ya'ni bir-birini to'ldirishi (guvohni majburiy keltirish bilan bir vaqtida unga nisbatan ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoki jamoat ta'sir choralarini qo'llash) mumkin.

Yuqorida keltirilgan va qonunda belgilangan protsessual majburlov choralar quyidagi sohalarda qo'llanilishi mumkin:

1. *Isbotlash sohasida*: jinoyat protsessi subyektlarining xohishga zid ravishda, ba'zida to'la qarshiligiga qaramasdan dalillarni aniqlash va to'plash maqsadida tergov va sud harakatlarini o'tkazish (bu yerda tintuv, olib qo'yish, ko'zdan kechirish², pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olib qo'yish, guvohlantirish, ekspertizalar, murdani eksgumatsiya qilish harakatlarini, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish, ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olish, eksperiment, shaxslarni so'roq yoki boshqa tergov harakatlarini o'tkazish uchun ularning ixtiyoriga zid ravishda majburan o'tkazilishi nazarda tutilmoqda).

Fikrimizcha, qonunda qachon bevosita majburlov qo'llanilishi mumkinligi va qachon protsessual majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ma'muriy, jinoiy, fuqaroviylar - huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarishi aniq belgilab qo'yilishi lozim.

2. *Huquqni qo'llashga oid protsessual aktlarning qonuniyligini ta'minlash sohasi*: a) tergovchi, prokuror, sudning noqonuniy qaror (ajrim, hukm)larini to'la yoki qisman bekor qilish – huquqni tiklash choralar; b) qonun buzilgan hollarda xususiy ajrim (qaror) chiqarish; d) qonun

¹ Филющенко А. А. Об уголовно-процессуальном принуждении // Право-ведение. – 1974. – № 3. – С. 108.

² Даев В. Г. Взаимосвязь уголовного права и процесса. – Л., 1982. – С. 65.

talablarini buzgan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorni ish yuritishdan chetlatish; e) rad qilishlarni qo'llash (bu chora bizning mavzumizga bilvosita bog'liq).

3. *Huquqqa xilof harakatlarga qarshi ta'sir choralarini qo'llash sohasi* – jinoyat-protsessual qonunni buzgan protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslarga bir qator holatlarda huquqning boshqa sohalarining sanksiyalarini ham qo'llash imkoniyati beruvchi jarimaviy choralar (tarjimon, mutaxassis, xolis, kafil, guvoh va sud majlisida tartibni buzgan shaxsga jarima (moddiy chora) qo'llanilishi.

4. *Shaxs huquqlarini kafolatlash sohasi* – protsess ishtirokchisini o'z huquqlaridan foydalanishga majburlash (voyaga yetmagan, ruhiy yoki jismoniy nuqsonlari mavjud shaxslarni himoyachi bilan majburiy ta'minlash, so'roq qilinuvchining xohishiga qarshi tarjimonni jalg qilish va shunga o'xshash holatlar).

5. *Oldini olish sohasi*: a) ehtiyyot choralar, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish (JPK 253-m.), munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat, qamoqqa olish, ushlab turish; b) ayblanuvchining huquqbazarlik va boshqa noo'rin xatti-harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida lavozimdan chetlatish yoki mol-mulkni xatlash kabi oldini olish choralar; d) ehtiyyot chorasi ni og'irrog'i bilan almashtirish yoki ehtiyyot chorasi ni o'zgartirishda avval qo'llanilgan garovni davlat hisobiga o'tkazish (JPK 249-m.).

Jinoyat-protsessual majburlov choralarining boshqacha tasniflari ham mavjud. Masalan, Yu. D. Livshis majburloving quyidagi turlarini farqlaydi: 1) ehtiyyot choralar; 2) dalillarni aniqlash va to'plash uchun o'tkaziladigan choralar; 3) sud majlisi davomida tartibni saqlash uchun qo'llaniladigan choralar; 4) boshqa choralar¹. Bu yerda boshqa oldini olish (ehtiyyot choralaridan tashqari) choralar ko'rsatib o'tilmagan (masalan, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish), protsessual javobgarlikning barcha choralar shakllantirilmagan; noqonuniy protsessual aktlarni bekor qilish va o'zgartirish ko'rinishidagi huquqni tiklovchi choralar nazardan chetda qolgan.

¹ Qarang: *Лившиц Ю. Д. Меры процессуального принуждения в уголовном процессе: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1998. – С. 6.*

Z. F. Kovriga esa protsessual majburlov choralarini ikkita katta guruhga ajratadi: 1) ehtiyot vositalari (ehtiyot choralari, tilxat, ushlab turish, majburiy keltirish, qidiruv, etap qilish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, sud majlisi tartibini buzganlarga nisbatan qo'llaniladigan choralar); 2) ta'minlovchi vositalar (tintuv, olib qo'yish, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish, mol-mulkni xatlash)¹.

Keltirilgan tasnifda jarima choralari, shuningdek noqonuniy va asossiz protsessual aktlarni bekor qilish ko'rinishidagi huquqiy tartibotni himoya qilish choralari; tergovchi va prokurorni ish yurituvdan chetlatish, majburiy rad qilish, huquqlardan foydalanishga majburlash, xususiy ajrimlar nazardan chetda qolib ketgan. Ta'minlash vositalari orasida esa tegishli protsess ishtirokchisining noroziligiga qaramasdan majburiy ravishda o'tkaziladigan bir qator protsessual harakatlar (guvohlantirish, ekspertiza o'tkazish, ko'zdan kechirish, eksperiment, ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalar olish va boshqalar) yo'q.

V. M. Kornukov o'z navbatida jinoyat-protsessual majburlov choralarini quyidagi ikki guruhga ajratadi: 1) jinoyat protsessida ayblanuvchi va boshqa shaxslarning ishtiroki va munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlovchi choralar (ehtiyot choralari, munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat, majburiy keltirish, ushlab turish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish); 2) dalillarni toplash, tekshirish va baholash hamda fuqaroviylar da'voni qondirishni ta'minlovchi choralar (tintuv, olib qo'yish, guvohlantirish, ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalar olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, mol-mulkni xatlash)².

Shunday qilib, protsess ishtirokchilariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyat-protsessual majburlov choralari tushunchasi quyidagi belgilarga ko'ra ochib berilishi mumkin: a) jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qo'llaniladigan davlat majburlovining turi; b) majburlov qo'llashga quyidagilar asos bo'ladi: hatto u yoki bu protsess ishtirokchisi norozi bo'lgan taqdirda ham protsessual harakatlarni o'tkazish lozimligi;

¹ Qarang: *Коврига З.Ф. Уголовно-процессуальное принуждение.* – Воронеж, 1975. – С. 29–30.

² Корнуков В. М. Меры процессуального принуждения в уголовном судопроизводстве. – Саратов, 1978. – С. 25.

jinoyat ishlarini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning nomunosib xatti-harakatlari oqibatida noqonuniy qabul qilingan qarorlarni bekor qilish lozimligi; jarima qo‘llashni keltirib chiqaruvchi protsess ishtirokchisining (sud muhokamasi davrida) xatti-harakati; oldini olish choralarini qo‘llash, xususan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llash lozimligi; d) ko‘rsatib o‘tilgan har qanday protsessual majburlov qo‘llash asosi isbotlangan bo‘lishi lozim (masalan, ehtiyot chorasini qo‘llash uchun ayblanuvchining yashirinishi mumkinligi ehtimoli yuqori ekanligini isbotlash lozim, tintuv va olib qo‘yish o‘tkazish haqidagi qaror qabul qilish uchun qidirilayotgan narsa muayyan shaxsda ekanligini isbotlash lozim va hokazo); e) majburlov qonun bilan o‘rnatilgan (belgilangan) protsessual shaklda va albatta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng qo‘llaniladi; f) protsessual majburlov natijasidagi shaxsning huquq va erkinliklarini cheklash minimal va albatta zaruriy (ehtiyojdan kelib chiqqan) bo‘lishi lozim¹; g) protsessual majburlov qo‘llash maqsadi – jinoyat ish yurituvi sohasida huquqtartibotni himoyalash, qonun buzilishlarini oldini olish va bartaraf etish, har bir jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash, ularni hal etishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, jinoyatdan zarar ko‘rgan fuqarolar, muassasa va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish va nihoyat jinoyatchilikka qarshi kurashda ko‘maklashish.

Majburlov choralarini qo‘llash, ayniqa erkinlikni cheklash bilan bog‘liq choralarini faqat qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan hollarda qo‘llash mumkin. Na protsessual qonun (huquq) analogiyasi, na huquq normalarining keng sharhanmaganligi bu holatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi, chunki shaxsning holati normativ materiallardagi mavjud uzilishlar sababli og‘irlashtirilmaydi.

Shunday qilib, biz jinoiy ish yurituvida ta’minlanishi va cheklanishi darajasiga ko‘ra insonning quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklarini tizimlashtirishimiz mumkin:

1. Shaxsiy daxlsizlik huquqi:

¹ Bu haqda qarang: *Кудин Ф. М. Охрана прав личности и уголовно-процессуальное принуждение // Гарантии прав лиц, участвующих в уголовном судопроизводстве.* – Свердлов. 1975. – С. 29.

- yashash, sog‘liq, tan daxlsizligi, jinsiy erkinlik huquqi va ularning davlat tomonidan muhofazasi;
- insonning sha’ni va qadr-qimmati, ma’naviy erkinligi, ruhiy daxlsizlik huquqi;
- insonning shaxsiy erkinlik huquqi.

2. Insonlarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi:

- yolg‘iz bo‘lish erkinligi;
- uy-joy daxlsizligi;
- muloqot erkinligi;
- yozishmalar, pochta-telegraf jo‘natmalari, telefon so‘zlashuvlari va shaxsiy yozuvlarning sir saqlanishi;
- insonlar shaxsiy hayotining sir saqlanishi;
- shifokorlik siri;
- oila va onalikni muhofaza qilish huquqi;
- farzandlikka olishning sir saqlanishi.

3. Inson va fuqarolarning boshqa shaxsiy huquq va erkinliklari.

XULOSA

Xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligidagi gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlarini cheklash tartibi va holatlarining quyidagi ijobiliy tajribasidan milliy protsessual qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- ushlab turish muddatini sudning ruxsati bilan yana 72 soatga uzaytirilishi tartibini amaldagi JPKda aks ettirish;
- mustaqil yoki avval qo'llanilgan qamoq ehtiyyot chorasingning o'rniga qo'llanilishi mumkin bo'lган «uy qamog'i» ehtiyyot chorasinini JPKga kiritish;
- munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat ehtiyyot chorasinini 30 kun muddatga qo'llash va zarurat tug'ilganda prokuror tomonidan har biri 30 kundan oshmagan muddatlarga uzaytirilishi mumkinligini nazarda tutuvchi JPKga yangi tartibni joriy qilish. Bu bevosita mazkur ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxsni nazorat qilishga xizmat qiladi;
- shaxsiy kafillik ehtiyyot chorasida kafillar sonini ikki nafardan besh nafargacha belgilash va har bir kafil depozit hisob raqamiga muayyan miqdordagi summani topshirishini joriy qilish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar nazoratiga topshirish ehtiyyot chorasinini joriy qilish va grafik asosida ishni yuritishga mas'ul mansabdor shaxs yoki vakolatli organda hozir bo'lish majburiyatini kiritish;
- qanday holatlar uzrli sabablarga ko'ra chaqiruvga binoan kela olmaslik ekanligini JPK normasi bilan belgilab qo'yish;
- shaxsiy tintuvda tintuvni amalga oshiruvchi, xolislar va mutaxassislarning tintiluvchi shaxs bilan bir xil jinsda bo'lishi shartligini belgilash;
- garov miqdorini sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi va yetkazilgan zarar miqdoridan kelib chiqib belgilash;
- olib qo'yishni faqat sudning ruxsati bilan o'tkazilishi, kechiktirib bo'lmas holatlarda prokuror sanksiyasi bilan o'tkazilishi mumkinligi va 24 soat ichida olib qo'yish harakati natijalari yuzasidan sudga xabar berish tartibini joriy qilish;
- prokuror sanksiyasi bilan amalga oshiriladigan SMS, MMS va elektron pochta jo'natmalarini xatlashga xizmat qiladigan «xabarlarni xatlash» deb nomlangan alohida tergov harakatini amaldagi JPKga kiritish;
- lavozimdan chetlashtirilgan shaxs o'ziga bog'liq bo'lmasan sabablarga ko'ra ishga joylasha olmasa eng kam oylik ish haqi miqdorida nafaqa olish huquqini JPKga kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahbariy adabiyotlar

1.1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1.1.1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2012.

1.1.2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси.

Расмий нашр. – Т., 2013.

1.1.3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Расмий нашр. – Т., 2012.

1.1.4. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. – Т., 2004.

1.1.5 Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: Сб. межд.документов / Сост.: Ю.С.Пулатов. – Т., 1995.

1.1.6. Минимальные стандартные правила организации объединенных наций в отношении мер, не связанных с тюремным заключением (Токийские правила) <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14681>

1.1.7. Минимальные стандартные правила организации объединенных наций, касающиеся отправления правосудия в отношении несовершеннолетних ("Пекинские правила") <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14685>.

1.1.8. Свод принципов защиты всех лиц, подвергаемых задержанию или заключению в какой бы то ни было форме, <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14692>.

1.1.9. Узбекистан и международные договора по правам человека / Ответственный редактор – проф., д.ю.н. А.Х.Сайдов. – Т., 1998.

1.1.10. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. – Т., 2002.

1.1.11. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар / Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. – Т., 2004.

1.1.12. Уголовно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германии. <http://www.legislationline.org/documents/id/9016>.

1.1.13. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14212>.

1.1.14. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики. <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14306>.

1.1.15. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14163>.

1.1.16. Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана, <http://www.legislationline.org/ru/documents/id/14383>.

1.1.17. Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики. <http://www.legislationonline.org/ru/documents/id/14110>.

1.1.18. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения. <http://www.legislationonline.org/documents/id/8873>.

1.1.19. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Белорусь. <http://www.legislationonline.org/ru/documents/id/14109>.

1.1.20. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова. <http://www.legislationonline.org/ru/documents/id/14512>.

1.1.21. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонской Республики. <http://www.legislationonline.org/ru/documents/id/8883>.

1.1.22. Уголовно-процессуальный кодекс Албании. <http://www.legislationonline.org/documents/id/8871>.

1.1.23. Уголовно-процессуальный кодекс Норвегии. <http://www.legislationonline.org/documents/id/8910>.

1.1.24. Уголовно-процессуальный кодекс Франции. <http://www.legislationonline.org/documents/id/8891>

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari:

1.2.1. *Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996.

1.2.2. *Каримов И. А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т., 1996.

1.2.3. *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996.

1.2.4. *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996.

1.2.5. *Каримов И. А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997.

1.2.6. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998.

1.2.7. *Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999.

1.2.8. *Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000.

1.2.9. *Каримов И. А.* Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001.

1.2.10. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т., 2002.

1.2.11. *Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003.

1.2.12. *Каримов И. А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Т., 2004.

1.2.13. *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005.

1.2.14. *Каримов И.А.* Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006.

1.2.15. *Каримов И. А.* Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007.

1.2.16. *Каримов И.А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Т., 2008.

1.2.17. *Каримов И.А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009.

1.2.18. *Каримов И. А.* Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010.

1.2.19. *Каримов И. А.* Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. – Т., 2011.

1.2.20. *Каримов И. А.* Бизнинг йўлими – демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т. 20. – Т., 2012.

1.2.21. *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.

1.2.22. *Каримов И. А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011.

2. Kitob va turkum nashrlari

2.1. Bir jildlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plami:

2.1.1. *Астанова Л.И.* Теоретические основы охраны прав личности в уголовном процессе и их реализация в правоприменительной деятельности. – Т., 1997.

2.1.2. *Безлепкин Б.Т.* Судебно-правовая защита прав и свобод граждан в отношениях с государственными органами и должностными лицами. – М., 1997.

2.1.3. Инсон ҳуқуқлари: Ўқув курси / Х.Б.Бобоев, А.Х.Саидов, Ш.Ш.Шораҳметов. – Т., 1997.

2.1.4. *Божьев В.П.* Комментарий к уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации. – М., 1997.

2.1.5. *Бойцова В.А.* Служба защиты прав человека и гражданина. Мировой опыт. – М., 1996.

- 2.1.6. *Булатов Б.Б.* Эффективность мер пресечения, не связанных с содержанием под стражей: Учебное пособие. – Омск, 1984.
- 2.1.7. *Васильева Е.Г.* Меры уголовно-процессуального принуждения. – Уфа, 2003.
- 2.1.8. *Гуткин И.М.* Меры пресечения в уголовном процессе. – М., 1989.
- 2.1.9. *Гуценко К.Ф.* Основы уголовного процесса США. – М., 1994.
- 2.1.10. Уголовный процесс западных государств / Гуценко К.Ф., Головко Л.В., Филимонов Б.А. – М., 2002.
- 2.1.11. *Мидор Дениэл Джон.* Американские суды. – Сент-Пол, Миннесота, Уэст Паблишинг Компани, 1991.
- 2.1.12. *Зинатуллин З.З.* Уголовно-процессуальное принуждение и его эффективность. – Казань, 1981.
- 2.1.13. *Кудин Ф.М.* Принуждение в уголовном судопроизводстве. – Красноярск, 1985.
- 2.1.14. Применение мер пресечения следователем: Учебное пособие / Ю.В.Манаев, В.С.Посник, В.В.Смирнов. – Волгоград, 1976.
- 2.1.15. *Михайлов В.А.* Методологические основы мер пресечения. – М., 1998.
- 2.1.16. *Николайчик В.М.* Уголовный процесс США. – М., 1981.
- 2.1.17. *Пешков М.А.* Арест и обыск в уголовном процессе США. – М., 1998.
- 2.1.18. *Романов А.К.* Правовая система Англии: Учебное пособие. – М., 2002.
- 2.1.19. *Строгович М.С.* Курс уголовного процесса. – М., 1968.
- 2.1.20. *Строгович М. С.* Курс уголовного процесса. – М., 1970.
- 2.1.21. *Трунов И.Л., Трунова Л.К.* Меры пресечения в уголовном процессе. – СПб., 2003.
- 2.1.22. *Тўлаганова Г.З.* Жиноят процессида эҳтиёт чораларининг қўлланиши муаммолари: Монография. – Т., 2005.
- 2.1.23. *Тухташева У.А.* Уголовный процесс: Общая часть. Учебное пособие. – Т., 2007.
- 2.1.24. *Калиновский К.Б.* Уголовный процесс современных зарубежных государств: Учебное пособие. – Петрозаводск, 2000.
- 2.1.25. *Николайчик В. М.* Уголовный процесс США. – М., 1981.

2.2. Ко‘р jildlik kitoblar:

- 2.2.1. *Бурҳониддин Марғиноний.* Ҳидоя. Т. 2. – Т., 1893.
- 2.2.2. *Мусаев Қ. М., Құдратов М. Ш.* Инглизча-русча-ўзбекча луғат. II жилд. – Т., 2001.
- 2.2.3. *Строгович М. С.* Курс советского уголовного процесса. Т.2. – М., 1970.

- 2.2.4. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси: Дарсл.к. Т.1. – Т., 1998.
- 2.2.5. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси: Дарсл.к. Т.2. – Т., 1998.
- 2.2.6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами (1999–2005). – Т., 2005.
- 2.2.7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / З. М. Маъруфов таҳрири остида. – М., 1981.

3. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

- 3.1. Акрамходжаев Б.Т. Обеспечение прав и законных интересов потерпевшего на предварительном следствии: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1992.
- 3.2. Алимов Ф.Х. Процессуальное положение прокурора в досудебном производстве: Теория и практика. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Т., 2009.
- 3.3. Васильева Е.Г. Проблемы ограничения неприкосновенности личности в уголовном процессе. Дисс.... канд. юрид. наук. – Уфа, 2002.
- 3.4. Давлетшин А.Х. Защита на предварительном следствии и ее эффективность: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1982.
- 3.5. Ишанова Ш.А. Нормы шариата и их применение казийскими судами в Средней Азии до 1924 г: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1992.
- 3.6. Ишниязов К. Организационно-правовые основы участия защитника в стадии дознания и предварительного следствия: Афтореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2002.
- 3.7. Миразов Д.М. Проблемы совершенствования проверки показаний на месте события по уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2004.
- 3.8. Миренский Б.А. Теоретические основы разработки уголовного законодательства: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 1992.
- 3.9. Муродов Б.Б. Дастлабки терговда жиноят ишини тугатиш масалалари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2008.
- 3.10. Саидов Б.А. Дастлабки терговда шахснинг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш принципининг таъминланиши: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2002.
- 3.11. Тўлаганова Г.З. Жиноят процессида эҳтиёт чораларининг кўлланиши муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2004.
- 3.12. Умархонов А.Ш. Одил судловга кўмаклашувчи шахсларнинг хавфсизлигини таъминлашга қаратилган ҳуқуқий чораларни такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2004.
- 3.13. Шаповалова Т.И. Залог как мера пресечения в уголовном процессе и его применение следователями ОВД: Автореф. дис. ... канд.юрид.наук. . – СПБ., 2001.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
SHAXS HUQUQ VA ERKINLIKALARINING KAFOLATLARI TIZIMI.....	5
SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI.....	11
MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI DAVLATLARINING QONUNCHILIGIDA SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI.....	15
G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI VA AQSH QONUNCHILIGIDA SHAXS HUQUQLARINI CHEKLASHNING ASOSLARI VA TARTIBI.....	32
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI HUQUQLARINI CHEKLASHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	44
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	67

CHUTBAYEV Muhammadullo Raxmatullayevich

**GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI
HUQUQLARINI CHEKLASHNING
XALQARO TAJRIBASI**

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **B. Q. Ergashev**
Texnik muharrir **D. X. Xamidullayev**

Bosishga ruxsat etildi 03.07.2014-y. Nashriyot hisob tabag‘i 5,2.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68